

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“KORPORATIV BOSHQARUV” KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etiladi”

““Korporativ boshqaruv” kafedrası

mudiri

_____Phd D.B Begmatova

« _____ » _____ 2018 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“O‘zbekiston Respublikasida Ijtimoiy infratuzilmani qo‘llab
quvvatlash muammolari va bartaraf etish yo‘llari ”**

(Qoraqolpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani misolida)

ILMIY RAHBAR:

I.f.n., dots. N.T.O‘rmonov_____

BAJARDI: Korporativ boshqaruv fakulteti

“Oliy ta’limning 230000 – «Iqtisod» ta’lim
sohasi 5230100 – « Iqtisodiyot (infratuzilma)»
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 4-kurs, EKI-51
guruhi talabasi Aminov Xojiakbar
Latifbayevich__

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi.

_____ sonli bayonnoma « _____ » _____ 2018 yil

Toshkent – 2018

MUNDARIJA

KIRISH

I-bob. O‘zbekistonda Ijtimoiy infratuzilmani qo‘llab quvvatlashning nazariy ilmiy asoslari.....	6
--	----------

1.1 Ijtimoiy infratuzilmani tushinchasi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni.....	6
1.2 Ijtimoiy infratuzilmani qo‘llab quvvatlashning meyoriy xuquqiy asoslari.....	12
1.3 Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish.....	16

II-bob. Qoraqolpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani Ijtimoiy soxani qo‘llab quvvatlashning xozirgi xolati tahlili.....	28
---	-----------

2.1 Ijtimoiy infratuzilmaning xozirgi xolati va rivojlantirish xususiyatlari.....	28
2.2 Ellikqal’a tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.....	35
2.3 Tuman moliya bo‘limi faolitining tashkiliy tuzilishi, daromadlari va xarajatlarning tahlili.....	46

3-bob. Ijtimoiy soxani qo‘llab quvvatlash istiqbollari.....	62
3.1 Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash.....	62
3.2 Obod qishloq dasturi asosida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish xususiyatlari.....	70

XULOSAS VA TAKLIFLAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu haqida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoning to'rtinchi ustuvor vazifasi „Ijtimoiy soxani rivojlantirish“ yo'nalishlarida belgilab qo'yganlar. „Ijtimoiy soxani rivojlantirish“ ustuvor yo'nalishlari tarkibiga kiruvchi aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish: yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish: vazifalar belgilab qo'yilgan. Chunki, ijtimoiy soxani rivojlantirish rivoshlantirish aholini farovonligini oshirishga hamda turli xil mulkchilik shakllarini rivoshlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish aholi yashash sharoitini yaxshilanishiga turtki boladi.

Aholi turmush darajasini oshirish va farovonligini yuksaltirishda ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining roli beqiyosdir. Shunga ko'ra, mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda respublikamizda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish borasida ahamiyatli yutuq va muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Ijtimoiy infratuzilmaning ijtimoiy hayotning turli jihatlariga ta'siri, muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ijtimoiy ishlab chiqarishni jadallashtirish vositasidir. Natijada, nafaqat ijtimoiy soha, balki uning butun aholisining alohida tarmoqlari faoliyati samaradorligini oshirish masalalari dolzarbligi kuchaymoqda. Ijtimoiy infratuzilmaning darajasi ta'lim muassasalari, madaniyat, maishiy xizmat

ko'rsatish, ming kishi yoki bitta maydon uchun savdoning miqdori bo'yicha baholanadi.

Ijtimoiy ma'lumot uchun ijtimoiy infratuzilma muammolari juda muhim va noyobdir. Hech qanday jamoat ongini, biror shaxsning, ijtimoiy guruhlarning, jamoalarning, sinflarning faoliyati yo'q va ularning faoliyat yuritishini ta'minlaydigan sharoitlar mavjud bo'lmasligi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishish bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir. Iqtisodiyot barqaror rivojlangandagina bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli o'tishi mumkin. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish - bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Biz iqtisodiyotni barqarorlashtira borib, bozor munosabatlarini normal rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiramiz. Islohotlar barqarorlikning g'oyat muhim sharti bo'lmish - aholini ijtimoiy himoya qilish, xaqiqatdan ham asosiy, uzluksiz, ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida oldindan o'tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lining yetakchi prinsiplaridan biridir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotda hududiy infratuzilma sohasi tarkibiga kiruvchi tuzilmalardan foydalanish amalda ancha ilgari boshlanganligiga qaramay, unga mukammal tizimga ega bo'lgan mustaqil soha sifatida e'tibor qaratish nisbatan kech ro'y berdi. Ma'lumotlarga ko'ra, XX asr boshlarida "infratuzilma" atamasi iqtisodiy tahlilda qurolli kuchlarning hayotga layoqatliligini ta'minlovchi ob'ekt va inshootlarni ifodalash uchun qo'llanilgan. 40 yillarda G'arbda infratuzilma tushunchasi orqali moddiy ishlab chiqarishning etarli darajada amal qilishi uchun xizmat qiluvchi tarmoqlar majmui tushunila boshlandi. Iqtisodiyotimizning butun tuzilmasi tayanadigan poydevordir. Respublika butun xalq xo'jalik kompleksi ishining uyg'unligi, uning samaradorligi, shuningdek, chet el sarmoyalarini jalb qilish va o'zlashtirish imkoniyati butunlay infrastruktura tizimi rivojining xolatiga va darajasiga bog'liqdir.

Aholiga xizmat qiluvchi yoki sosial infratuzilmasiga uy-joy, kommunal va transport xizmati, maorif, madaniyat hamda sog'liqni saqlash muassasalari, aholini ishga joylashtirish firmalari va idoralari va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi Ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish asosida sub'ektlar harakati modellarini optimallashtirishdir. SHuningdek, u insonlarning normal mehnat faoliyati va turmushini, dam olishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umumiy qaraganda ijtimoiy infratuzilmani ikkiga bo'lib turkumlash mumkin:

1. Korxonalarda ishlab turadigan bo'limlar va xizmat sohalari. Bularga dam olish xonalari, bufetlar va do'konchalar, tamaddixona va dala oshxonalar, hammomlar va dushlar, tibbiy punktlar, ishchilarni ish joyiga etkazuvchi transport, mehnat muhofazasi xizmat sohalari, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari kiradi.

2. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va muassasalar. Bularga uy joy va kommunal xo'jaliklari, ta'lim va madaniyat, sport tashkilotlari, tibbiyot, savdo va umumiy ovqatlanish, bolalar bog'chalari, aholi tashish transporti, hammom va kir yuvish kombinatlari kiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Ijtimoiy infratuzilmani qo'llab-quvvatlash oldidagi muammolarni iqtisodiy jihatdan yoritib berish, hamda uni yanada rivojlantirish yuzasidan amaliy takliflar va tavsiyalarni berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari uning maqsadidan kelib chiqib quyidagilarni nazarda tutadi:

Ijtimoiy infratuzilmani o'rni va mohiyatini nazariy yoritib berish;

Ellikqala tumanida Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish holatining iqtisodiy tahlilini bajarish;

Ijtimoiy infratuzilmani qo'llab quvvatlash, rivojlantirish va istiqbollarini belgilashda davlatning rolini o'rganib chiqish;

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish muammolarini o'rganish va kerakli tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy infratuzilmani mamlakatimiz i rivojlanishidagi o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari aniqlab berildi;

- Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda chet davlatlar amaliyoti ko'rsatib o'tildi;

- Ijtimoiy infratuzilmani davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar berildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ushbu bitiruv malakaviy ishining obyekti bo'lib Qoraqolpog'iston Respublikasi, E'llikqal'a tumani Moliya bo'limi hisoblanadi. Axoliga samarali va sifatli xizmatlarni ko'rsatish, Ijtimoiy infratuzilma mexanizmlarini takomillashtirish tadqiqot ishining predmetini ifodalaydi.

Tadqiqotning nazariy va metodologik manbalari. Bitiruv malakaviy ishi bir qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar hamda mutaxassislarning Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga bag'ishlangan asarlari va ilmiy ishlaridan foydalanilgan holda amalga oshirilgan. Tadqiqot jarayonida respublikada Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublika qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan korxonalarning yillik hisobotlari va ilmiy maqolalaridan foydalanilgan.

Ishning tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-bob. O‘zbekistonda Ijtimoiy infratuzilmani qo‘llab quvvatlashning nazariy ilmiy asoslari

1.1 Ijtimoiy infratuzilmani tushinchasi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishish bilan chambarchas bog‘langan. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir. Iqtisodiyot barqaror rivojlangandagina bozor munosabatlariga muvaffaqitli o‘tishi mumkin.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish - bozorni shakllantirish yo‘lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Biz iqtisodiyotni barqarorlashtira borib, bozor munosabatlarini normal rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiramiz. Islohotlar barqarorlikning g‘oyat muhim sharti bo‘lmish - aholini ijtimoiy himoya qilish, xaqiqatdan ham asosiy, uzluksiz, ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida oldindan o‘tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O‘zbekistonning o‘z istiqbol va taraqqiyot yo‘lining yetakchi prinsiplaridan biridir.

Ijtimoiy soha¹ – bu davlat va jamitning ijtimoiy masalalar yechimiga qaratilgan faoliyatining mosligi, boshqacha qilib aytganda, barcha ijtimoiy dasturlarning mosligi. Shuningdek, ijtimoiy ehsonlarni amalga oshiruvchi davlat va jamit tashkilotlarining, maktab, o‘quv yurtlari, kasalxonalar, teatrlar, mehnat bo‘limlari, energiya tarmoqlari, suv, gaz tarmoqlari va boshqalar, ya’ni davlat qo‘lidagi ijtimoiy infratuzilma.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlari bu eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir. Shunday qilib, biz komil ishonch bilan ayta olamizki, mustaqillik yillari mobaynida biz yangi

¹ Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Muxamedjonova G. “Ijtimoiy Soha Iqtisodiyoti” Uslubiy Qo‘llanma. T.: TDIU, 2008. -160 B.

javit asoslarini yaratishga o'zgarishlar muqararligining negizini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik².

Ijtimoiy sohani asosiy mazmuni³ – aholi turmush farovonligini oshirish hisoblanadi. Aholining turmush farovonligi darajasi sanoat va qishloq ho'jaligi maxsuloti hajmi bilangina emas balki ijtimoiy soxani rivojlantirish axvoli, darajasi, asosan byudjetli tibbiyotni, uy joy qurilishini rivojlantirish hamda xizmat ko'rsatishni tashkil qilish nazarda tutilgan qismi bilan xam bog'liq. Binobarin, iqtisodiyotni inson tomonidan xar bir oilaning kundalik zaruriti va xayotiy ehtiyojlari, aholining individual talablari tomoniga yo'naltirish ishlarimizning o'zagi bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda ham aholi muxtojlik darajasiga qarab farqli guruhlariga ajratilgan: juda muxtojlar; muxtojlar; kam mulklilar va kam ta'minlanganlar.

Aholiga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy soha-bu milliy iqtisodiyotning har xil tarmoqlarining yig'indisidir. Buning asosiy funksyaisi, aholi uchun kerak bo'lgan xizmatlarni yaratishdir.

Ijtimoiy soha tarmoqlariga quydagilar kiradi: chakana savdo, maorif, tibbiyot, uy-joy komunal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'i, jismoniy tarbi va sport, madaniyat va san'at, atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy taminot va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatilgan sohalar aholining qandaydir extiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlardir.

Xizmatlarning hammasini ikkita yirik guruhga bo'lish mumkin:

- 1) Moddiy xizmatlar;
- 2) Ijtimoiy va manaviy xizmatlar.

² Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir". Toshkent: "O'zbekiston", 2010-yil.

³ Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Muxamedjonova G. "Ijtimoiy Soha Iqtisodiyoti" Uslubiy Qo'llanma. T.: TDIU, 2008. -160 B.

Moddiy xizmatlar ishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish, ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar. Masalan, savdo xizmatlari, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning ayrim turlari.

Ijtimoiy va ma'naviy xizmatlarga sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat muassasalarining xizmatlari, jismoniy tarbi va sport, adabiyot, teatr, kino, muzeylar va boshqa tarmoqlarning xizmatlari va boshqalar kiradi.

Yetkazib berish usuli bo'yicha xizmatlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) Pulli xizmatlar;
- 2) Bepul xizmatlar.

Pulli xizmatlarga uy-joy komunal xo'jalik xizmatlari, aholiga maishiy xizmatlar ko'rsatish tarmoqlari, savdo xizmatlar va hokazolar kiradi. O'zbekiston tabiiy va xomashyo resurslariga boy. Bularning hammasi

- yer, suv, o'rmon va yer osti boyliklari-respublikaning ajralmas mulki bo'lishi kerak.

Ijtimoiy sohaga quyidagilar kiradi:⁴

- maorif va sog'liqni saqlash:
- ijtimoiy ta'minot:
- madaniyat va san'at:
- uy-joy kommunal xo'jaligi
- aholiga maishiy xizmat ko'rsatish:
- chakana savdo va umumiy ovqatlanish:
- jismoniy tarbi, sport va boshqa tarmoqlar.

Infratuzilma atamasi XX asrning 40-yillari oxirida ilmiy ma'ruza kiritdi va dastlab turli xil qo'shinlarning muvaffaqitli hamkorligini ta'minlovchi yordamchi tuzilmalar majmuini nazarda tutgan edi. Ammo 50-yillarda olimlar bu tushunchaga iqtisodiy hayot jarayonlarini tushuntirish uchun murojaat qilishdi. Amerikalik birinchi iqtisodchi P.Rosenshtein-Rodanning aytishicha, infrastruktura

⁴ Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Muxamedjonova G. "Ijtimoiy Soha Iqtisodiyoti" Uslubiy Qo'llanma. T.: TDIU, 2008. -160 B.

iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun qulay shart-sharoitlar majmuini tashkil etgan.

Asta-sekin bu atama iqtisodiy va ijtimoiy hayotni o'rganishda keng qo'llanila boshlandi. Uning ta'vilida muhim bir nuqta - uni nafaqat moddiy va texnik jihatdan amalga oshirish, balki uning sifati, aholining ehtiyojlarini qondirish darajasini baholash edi.

Ijtimoiy infratuzilmani o'rnatishdan, aholi, uning alohida guruhlari va assotsiatsilarining qiymat yo'nalishlari hisobga olinmaydi. "... qiymatlarni tartibga soluvchilarning mavjudligi ijtimoiy tizimlarning eng muhim xususitlaridan biridir". Shuning uchun, normativ yondashuvni retsept sifatida cheklash kerak emas. Bu insonning lazzatligi, istaklari, ehtiyojlari va intilishlarini tahlil qilish bilan to'ldirilishi kerak, chunki bu ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilmalar beqiyos o'rinni egallaydi, chunki ular orqali zarur bo'lgan xizmatlar amalga oshiriladi. Infratuzilmalarning bir qancha turlari mavjud. Jumladan, bozor infratuzilmasi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, transport-kommunikatsi infratuzilmasi, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmalar va h.k.

Ijtimoiy infratuzilmalar⁵ - bevosita ijtimoiy sohaga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni amalga oshiradigan xizmatlari majmuini tashkil qiladi. Biz ijtimoiy infratuzilmalarga agar ta'lim sohasini oladigan bo'lsak, maktab, kutubxonalar, kasb-hunar kollejlari, litseylar, universitetlar, ta'lim markazlari, axborot-resurs markazlarini tushunamiz. Darhaqiqat, ular, o'z navbatida, ta'lim sohasi uchun zarur bo'lgan xizmatlarni amalga oshiradilar. Shuning uchun ham har yili ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini kapital ta'mirlash, qurish, joriy ta'mirlash uchun davlat byudjetidan mablag'lar ajratiladi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy soha uchun muhimdir.

⁵ M.M.Tashxodjayev, R.X.Karlibayeva, Z.A.Ashurov "Ishlab Chiqarish Infratuzilmasi" O'quv Qo'llanma TDIU: 2014.

Ijtimoiy infratuzilma salohitining o'sishi jamitning uni rivojlantirish va takomillashtirishga, mavqei va unda ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to'lashni oshirishga, shuningdek, turarjoy muammosini hal etishni ta'minlovchi tarmoqlar holatini ko'tarishga, inson sog'lig'ini mustahkamlashga, uning mehnatga qobiliyati, kasbiy va madaniy darajasini oshirishga ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga bog'liq.

Ijtimoiy infratuzilmaning holatiga ko'ra ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilish darajasi va sifati, ularning sanoati rivojlangan mamlakatlar darajasi bilan bog'liqligi va zamonaviy taraqqiyot talablari baholanadi. Ijtimoiy dasturlarning amalga oshirilishiga muvofiq umumishlab chiqarish jarayonida ijtimoiy infratuzilmaning ahamiti oshadi va uning lpi ichki mahsulotdagi ulushi ko'padi. Ijtimoiy infratuzilmaning hajmi va ko'lami shundayki, uni ijtimoiy ishlab chiqarishning to'rtinchi bo'linmasi deb qarash mumkin.

Qishloqda nafaqat obod aholi maskanlari va zamonaviy uylar, balki ravon yo'llar, uzluksiz energiya ta'minoti, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimi, rivojlangan ijtimoiy ob'ektlar tarmog'i (qishloq vrachlik punktlari, maktablar, bolalar sporti inshootlari, telekommunikatsiya va pochta aloqasi bo'ladimi, xizmat ko'rsatish, savdo shoxobchalari va boshqa tuzilmalar ega bo'lindi. Bu qishloqlarda aholini, ayniqsa, yoshlarning bandligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lmoqda⁶.

Qishloq joylardagi mavjud infratuzilmani kengaytirish bo'yicha qo'shimcha mablag' va imkonitlar topildi. ya'ni, qishloqlar qiyofasini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yayangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal ob'ektlar, kommunikasiyalarni barpo etish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan aniq maqsadli ishlarda turli imtiyoz va qulayliklar ta'minlandi.

Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturi zahirida o'n minglab yangi ish o'rinlarini ratishdek, juda

⁶ I.A. Karimov "Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi" - Toshkent: - xalq so'zi. 2016-Yil 17-yanvar.

ulkan hajmdagi ishlar mujassam bo'lib, mamlakatimiz aholisining bunday keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida faol ishtiroki ta'minlanmoqda. Qolaversa, mazkur dastur mamlakatimiz uchun dolzarb bo'lgan aholi bandligini ta'minlash, shu tariqa odamlarning daromadini nada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalari hal etilishiga xizmat qilmoqda.

O'tgan yillar mobaynida iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsi qilishni chuqurlashtirish, bandlikni ta'minlash, odamlarimizning daromadi va hayot sifatini oshirishning muhim omil va yo'nalishlaridan biri tariqasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish borasidagi tizimli ishlar izchil davom ettirildi. Ijtimoiy va madaniy infratuzilma sog'liqni saqlash, rekreatsiya, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadi. ijtimoiy himoya, ta'lim, madaniyat va san'at, diniy binolar va boshqalar. Yaqin vaqtgacha ijtimoiy infratuzilma materiallar ishlab chiqarish sohasining asosiy tarmoqlariga nisbatan ikkinchi darajali rol o'ynadi. Ijtimoiy infratuzilmaning elementlari paydo bo'lishi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ishlab chiqarishning tabiiy sharoitlari sun'iy tarzda yaratilgan, tayyor mahsulotni yakuniy jarayonlarga va ishlab chiqarilgan mahsulot aylanmasini tashkil etishga bog'liq holda ishlab chiqarilgan mehnatning ijtimoiy taqsimlanishini chuqurlashtirish bilan bog'liq.

Biroq, bugungi kunda ijtimoiy infratuzilma iqtisodiyotning bilimga asoslangan sohasiga aylanmoqda va uning tarkibiy qismlari - savdo va restoran korxonalarining infratuzilmasi, kommunikatsiya infratuzilmasi, televidenie va radio, axborot infratuzilmasi - bu texnika jihozlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatida ushbu ko'rsatkichdan yuqori. Shu bilan birga, ijtimoiy infratuzilmaning ta'lim va ma'naviy tarkibiy qismi ma'lumotni ishlab chiqaruvchi bo'lib, keyinchalik iqtisodiyotning barcha jabhalariga tarqalib, o'sish uchun yangi istiqbollarni ochib beradi, sifat va samaradorlikni oshiradi.

1.2 Ijtimoiy infratuzilmani qo'llab quvvatlashning meyoriy xuquqiy asoslari

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida jamiyatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlar jarayonida aholining ijtimoiy himoyayaga muhtoj qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularni ish bilan bandligini taminlash, yolg'iz keksalarni tibbiy-ijtimoiy himoyalashga qaratilgan doimiy e'tibor jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda.

Mamlakatimizda bu sohadagi ishlarni tashkil etishning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. "Vasiylik va homiylik to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyaya qilish to'g'risida", "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida", "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi va boshqa qonunlar hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va hayotga joriy etilmoqda⁷.

Mazkur qonun hujjatlarida belgilangan vazifalar izchillik bilan ijro etilayotgani, har yili davlat byudjetining salmoqli qismi ijtimoiy sohaga sarflanayotgani bu boradagi ishlarni tizimli asosda tashkil etish, inson manfaatlarini ta'minlash, xalqimizning ertangi kunga ishonchi va intilishini yanada kuchaytirishda katta rol o'ynamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 26-dekabrdagi «Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun Ijtimoiy infratuzilmalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bu boradagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim huquqiy asos bo'lmoqda.

Keksalar, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularning holidan xabar olish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish xalqimizning azaliy qadriyatidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov

⁷ I.A. Karimov "Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi" - Toshkent: - xalq so'zi. 2016-Yil 17-yanvar.

tomonidan ishlab chiqilgan va dunyoda “o‘zbek modeli” deya e’tirof etilgan taraqqiyot strategiyasining muhim tamoyillaridan biri – kuchli ijtimoiy siyosat yuritish ekanligi bu borada muhim omil bo‘ldi. Mamlakatimizda xalqimizni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va aholiga Ijtimoiy infratuzilma ko‘rsatish bo‘yicha zamonaviy tizim yaratildi. Bu nogironlarni, yolg‘iz keksalarni va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamini tibbiy-ijtimoiy himoyayalash, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlashda o‘z samaralarini berayotir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, hozirga qadar aholiga Ijtimoiy infratuzilmalar ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va yuqorida qayd etilgan bir qator qonunlar asosida amalga oshirilardi. Globallashuv jarayonining tobora chuqurlashuvi, huquqiy munosabatlarning takomillashayotgani bu yo‘nalishda alohida qonun ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Qonunni tayyorlash jarayonida taraqqiy etgan ilg‘or mamlakatlarning bu yo‘nalishdagi qonunchilik tajribasi o‘rganildi. Xalqimizning milliy qadriyatlari va istiqloq yillarida bu sohadagi ishlarni tashkil etishda orttirilgan ilg‘or tajribalar tahlil etildi. Qonun loyihasi keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazildi.

Olti bob, o‘ttiz moddadan iborat qonunda Ijtimoiy infratuzilma sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari o‘z ifodasini topgan. Bu jarayonda shaxsning munosib hayot kechirishini ta’minlashga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu vazifani to‘laqonli amalga oshirish uchun Ijtimoiy infratuzilmalarga muhtojlarni o‘z vaqtida aniqlash, hisobga olish, ularga xizmat ko‘rsatish bilan cheklanish kifoya qilmaydi. Ijtimoiy infratuzilmalardan foydalanuvchilarning oila va jamiyat bilan aloqalarini saqlash, ularning qulay muhitda bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ham muhim vazifadir. Davlat organlarining bu sohadagi faoliyati ochiqqligini, Ijtimoiy infratuzilma ko‘rsatish bo‘yicha standartlarga rioya etilishini ta’minlash, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish ham belgilab qo‘yilgan.

Shu o‘rinda Ijtimoiy infratuzilmalar qanday yo‘nalishlarni qamrab olishiga aniqlik kiritish lozim. Qonunning beshinchi moddasida bu tushunchaga batafsil izoh berilgan. Ijtimoiy infratuzilmalar shaxsning turmushi sifatini oshirishga, unga jamiyat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng bo‘lgan

imkoniyatlarini yayaratishga va yoki o'zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan xizmatlarga muhtoj shaxsga yordam ko'rsatish bo'yicha huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta'limga oid, tibbiy, rehabilitatsiya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlar majmuidir.

Qonunda davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlarining aholi ana shunday ehtiyojmand toifalariga Ijtimoiy infratuzilmalar sohasidagi vakolatlari o'z ifodasini topgan.

Yangi qonunga muvofiq, kimlar Ijtimoiy infratuzilma olishi mumkin va ularga qanday shaklda xizmat ko'rsatiladi⁸?

O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashovchi keksalar, I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari hisoblanadi. Ular ijtimoiy kuzatuv va maslahat berish xizmatlari, uyda parvarishlash bo'yicha Ijtimoiy infratuzilmalar, kunduzi va (yoki) qisqa muddat bo'lish muassasalaridagi Ijtimoiy infratuzilmalar, internat muassasalaridagi Ijtimoiy infratuzilmalardan foydalanishi mumkin.

Ijtimoiy kuzatuv va maslahat berish xizmatlari quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: Ijtimoiy infratuzilmalar ko'rsatish masalalari bo'yicha maslahatlar berish, tegishli organlar va tashkilotlarga yuborish, ishga joylashishda ko'maklashish, homiylik va vasiylikni belgilash, farzandlikka olish, yetim bolalarni va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilada tarbiyalash (patronat), bolalar internati muassasalariga qabul qilishda ko'maklashish bu boradagi faoliyatning muhim yo'nalishidir. Bolalar internati muassasalari tarbiyalanuvchisini oilaga qabul qilishga ota-onalarni yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni tayyorlash, uy-joy, maishiy jihatdan joylashish va moddiy yordam olish, protez-ortopediya buyumlarini va rehabilitatsiya texnik vositalarini olishda ko'maklashish kabi vazifalarni qamrab oladi.

⁸ www.lex.uz

Maishiy xizmat ko'rsatish, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini, gigiyena tovarlarini, dori vositalarini va tibbiyot buyumlarini xarid qilish va uyga yetkazib berish, ovqat tayyorlash, xonalarni yig'ishtirish-tozalash, shaxsiy gigiyena tadbirlarini amalga oshirish, zarur tibbiy yordam ko'rsatilishida ko'maklashish, tibbiyot ko'rsatmalariga ko'ra protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlash uyda parvarishlash bo'yicha Ijtimoiy infratuzilmalarning asosiy turlaridir.

Qonunda kunduzi va (yoki) qisqa muddatda bo'lish muassasalaridagi hamda internat muassasalaridagi Ijtimoiy infratuzilmalarning turlari va yo'nalishlari ham aniq ifoda etilgan.

Oramizda Ijtimoiy infratuzilmaga muhtoj insonlar uchrab tursa-da, hamma ham bu borada tegishli tashkilotlarga murojaat qilavermaydi. Shu jihatlar e'tiborga olinib, qonunchiligimizda bunday ehtiyojmand insonlarni aniqlash va ularga zamonaviy xizmat ko'rsatish bo'yicha aniq mexanizmlar yaratilgan.

Ijtimoiy infratuzilmaga muhtoj shaxsning turmush sharoiti baholanadi. Unga xizmat ko'rsatish bo'yicha yakka tartibdagi dastur ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, dasturning ijrosi bo'yicha monitoring yuritiladi. Monitoring natijalari yakka tartibdagi dasturni qayta ko'rib chiqish yoki tugatishga asos bo'ladi. Ijtimoiy infratuzilma oluvchining oilaviy holati o'zgarishi natijasida uning turmush sharoiti yaxshilanishi yoki bunday xizmat olishni rad etganligi, boshqa joyga ko'chib ketgani, doimiy yashash joyida uzoq muddat bo'lmasligi yoki taqdim etilgan ma'lumotlar qalbaki bo'lib chiqishi va boshqa holatlar Ijtimoiy infratuzilmalar yakka tartibdagi dasturi tugatilishiga asos bo'ladi.

Inson taqdiriga e'tiborsiz bo'lmaslik, shaxsning huquqlarini ta'minlash, barcha uchun teng sharoitlar yaratish ustuvor yo'nalish etib belgilangan mazkur qonunda sohadagi ishlarni tizimli asosda tashkil etish bilan bir qatorda bu jarayonda davlat va jamoat nazoratini yuritish yo'nalishlari o'z ifodasini topgani qonunning hayotiyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

1.3 Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy infratuzilma jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi, odamlarning oqilona hayotiy faoliyati uchun moddiy imkonitlardan foydalanishning kengligi va chuqurligining muhim ko'rsatkichidir.

Ijtimoiy infratuzilmaning roli, avvalo, mavjud iqtisodiy strukturaning samaradorligini oshirish yoki kamaytirishi mumkinligidan dalolat beradi. Uning ahvoli ijtimoiy salohitni, jamiyatning mavjud moddiy-texnika bazasini, hududni va shaxsiy jamoalarni kamolotini aks ettiradi⁹.

Hozirgi kunda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish jamiyatda yuzaga keladigan, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, millatlararo munosabatlar, qayta joylashtirish, inson salomatligi kabi barcha jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Moddiy unsurlarni mustahkamlash va normal ishlatish masalasi turlicha bo'lgan ijtimoiy hayotning hech bir sohasi yo'q. Bundan tashqari, ijtimoiy amaliyotlar va inson hayotining umumiy shartlari o'rtasidagi ushbu munosabatlar, bir tomondan, insoniy maqsadlarni amalga oshirish, albatta, moddiy unsurlarning borligini nazarda tutadi, boshqa tomondan, infratuzilma uning oyangiga va xatti-harakatlariga ta'sir qiladi.

Ijtimoiy infratuzilmani oqilona rivojlantirish - ko'plab masalalarni hal qilishni talab qiladigan ko'p qirrali muammo. Iqtisodiyotni boshqarish tarixi bir necha bor ko'rsatib turibdiki, odamlar faoliyatining ijtimoiy jihatlariga, jumladan, umumiy sharoitlarga e'tibor bermaslik, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda jiddiy buzilishlarga olib keladi. Afsuski, olimlar fikri va ularning tavsilari o'nlab yillar davomida hisobga olinmagan. 1974 yilda Baykal-Amur magistralining muammolari bo'yicha ilmiy konferentsi kunlari na bir bor katta qiziqish bilan ijtimoiy sohada uzoq muddatli kechikish paydo bo'lganligini ko'rsatadi. O'sha

⁹ Minakova, I. V. Rossi barqaror rivojlanishining resurslarini qo'llab-quvvatlash. [M] / IV Minakova, V. V. Kovarda // Intellect. Innovatsilar. Investitsilar. №1, 2012. - P. 88-97.

kundan boshlab, to'rtidan bir asr o'tdi, ammo vazit tobora qqol ko'zga tashlanmadi va BAMning mavjudligini shubha ostiga oldi.

Ijtimoiy rivojlanishning murakkabligi inson hayotining umumiy sharoitlari majmuasi haqidagi boshqa g'olarni talab qiladi. Zamonaviylashtirish jarayonlari nafaqat ularning ahamitini ko'rsatgan, balki, ayniqsa, muhim bo'lgan - barcha shart-sharoitlarni zaruriy bog'lashni nazarda tutadigan tizim.

Biroq, ko'pincha ijtimoiy infratuzilma elementlari xususiy texnik, ishlab chiqarish, tashkiliy yoki iqtisodiy vazifalar nuqtai nazaridan bir-biridan ajratilgan holda ko'rib chiqiladi. Shuning uchun ijtimoiy infratuzilmaning barcha tarkibiy qismlari gona, xlit boshqaruv va rejalashtirish jarayonining mavzusi bo'lishi kerak. Bu davlat boshqaruvining samaradorligiga, iqtisodiyotning kuch va salohitidan oqilona foydalanishga ta'sir qilgan va ta'sir qiladigan elementlarning murakkabligi va o'zaro muvofiqlashtirilmasligi.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishlari jamiyatni yangilash jarayoni bilan belgilanadi. Ijtimoiy infratuzilmaning ko'plab tarkibiy qismlari boshqaruv jarayonida hisobga olinishi bilan birga, uzoq vaqt davomida uning roli passiv bo'lib, ko'p hollarda ishlab chiqarish salohitini, jamitni rivojlantirishning barcha bosqichlarida amalga oshirilgan texnik va iqtisodiy loyihalarni ifodalaydi. Bu ko'plab ilg'or tashabbuslarni torpil qilib, odamlarning oyangiga va xatti-harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi shafqatsiz qoldiq printsipida namoyon bo'ldi.

Ijtimoiy infratuzilmani nisbatan mustaqil ravishda rivojlantirish zarurati me'yoriy-huquqiy bazani yanada rivojlantirish zarurati bilan bog'liq. Aholining kommunal va maishiy xizmatlarga bo'lgan talablari, shuningdek oziq-ovqatning fiziologik me'yorlari, pobzal, mato va muhim bardoshli iste'mol uchun zarur normalar real hayot talablari bilan yomon muvofiqlashtirildi. Ushbu me'yorlar iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishidagi ob'ektiv tendentsilarni, xususan, mamlakat hududlarida ham, turli xil ijtimoiy-demografik guruhlardagi sinashning o'ziga xos xususitlarini to'liq hisobga olmaydi. Sanoatning mamlakatning sharqiy hududlariga o'tishi munosabati bilan yangi rivojlanish

sohasidagi dalillarga asoslangan ijtimoiy infratuzilmani ratish masalasi keskin ko'tarildi.

Shahar infratuzilmasi, shaharlar va aglomeratsilar muammolarini ko'rib chiqishda ijtimoiy infratuzilma muhim ahamitga ega. Ushbu jarayonlarni samarali boshqarish odamlarning xatti-harakatlarining ijtimoiy asoslari funktsilarining xususitlarini hisobga olmagan holda tasavvur qilinmaydi. Buguyangi sharoitda shaharlarga, ayniqsa, katta (shash uchun noqulaylik, kundalik hayot uchun xshi sharoitlar bo'lmagan) da'vo soni ortib bormoqda.¹⁰

XX asr oxirida ko'pgina mamlakatlar oldida iqtisodiy rivojlanishning yangi yo'llarini va iqtisodiy muammolarni hal etishning yangi metodlarini izlash masalasi ko'ndalang bo'ldi. Jahon iqtisodiy rivojlanishining global tendensiyalari bunda eng istiqbolli yo'l jamiyatdagi butun iqtisodiy tizimni ijtimoiy omillarni kuchaytirish va hatto ustuvorlik roli tomon qayta qurish ekanligidan dalolat beradi. Bu tendensiya nazariy jihatdan barcha etakchi iqtisodiy maktablar tomonidan tan olinadigan ijtimoiy bozor iqtisodiyoti konsepsiyasida o'z aksini topgan.

Bozorning ijtimoiy muammolarini birinchi o'ringa qo'yish jahon iqtisodiy rivojlanishining tabiiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi, bunda iqtisodiyotning samaradorligini yanada oshirish masalalari sezilarli darajada pirovard oqibatda ishlab chiqarishning inson omilini rivojlantirishdan iborat bo'lishi mumkin bo'lgan ham eski, ham yangi ijtimoiy muammolarning hal etilishiga bog'liq bo'lib qoladi. Agar inson omili ijtimoiy muhofaza muammolari doirasida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, fikrimizcha, xo'jalik yuritishning bozor tizimi shart-sharoitlarida aholini ijtimoiy muhofazalashning butun tizimi aslida kelgusidagi iqtisodiy o'sishning asos-jamg'arilgan inson potensialini saqlab qolish va rivojlantirish kabi bosh vazifani (yuqorida qayd qilingan ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vazifasidan tashqari) hal qilishga bo'ysundirilganligini tan olmaslik mumkin emas. O'tish iqtisodiyotini, bozor islohotlari jarayoni rivojlanishda bo'lgan mamlakatlarda avval

¹⁰ Minakova, I. V. Rossi barqaror rivojlanishining resurslarini qo'llab-quvvatlash. [M] / IV Minakova, V. V. Kovarda // Intellect. Innovatsilar. Investitsilar. №1, 2012. - P. 88-97.

boshdanoq bozor mexanizmlarini, bunday vazifalarni hal qilishi lozim bo'lgan ijtimoiy sohaning davlat tomonidan boshqarilishi bilan biriktirishni mo'ljalga olish g'oyat muhim.

Tub islohotlar davrida ijtimoiy bozor islohotlari doirasida iqtisodiy rivojlanishning yangi metod hamda vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ham muhimdir. Barcha hokimiyat tuzilmalari ijtimoiy siyosatning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida hamda odamlarning barcha faoliyatlari, jumladan, mehnat faoliyatlari uning ijtimoiy mazmunidan kelib chiqib baholanishida davlatning rolini faollashtirishga yo'naltirilishi kerak.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish.

Evropa mamlakatlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish

Davlat ijtimoiy muhofazalash tizimi SHimoliy Evropa davlatlarida, ayniqsa Shvetsiyada anchagina rivojlangan. Aksincha, AQShda davlat faqat minimal ijtimoiy muhofazani ta'minlaydi, bundan ortig'iga insonning o'zi erishishi lozim, chunki har bir kishi o'z hayoti va kelajagi uchun o'zi javobgar.

Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy muhofazalash sohasi uchun umumiy bo'lgan tendensiya shundaki, bu davlatlarda ijtimoiy jamg'armalarga badallar korxona yoki mehnatkashlar tomonidan to'lanadi (Finlyandiyada faqat korxonalar to'lasa, Germaniya, Niderlandiya, Fransiyada asosiy og'irlik mehnatkashlar gardanida). Olinadigan yordam miqdoridagi farq sezilarli darajada. Imtiyozlardan foydalanishda umumiy tenglik huquqi Shimoliy Evropa davlatlari, Niderlandiyada amal qiladi. Belgiya, Germaniya, Fransiyada nafaqa va yordam miqdori to'langan badallar salmog'iga qarab belgilansa, AQSh va Kanadada nafaqalar muhtojlik darajasiga qarab to'lanadi.

Ijtimoiy davlat rivojlanishi, xususan, ijtimoiy xarajatlarni moliyalash inqirozida ifodalangan tanazzul hodisalarini rivojlangan bozor mexanizmlarining moslashuvchanligi ancha yumshatdi. Shu bilan birga, mazkur mamlakatlar rivojlanishining bu murakkab bosqichida ijtimoiy sheriklar tomonlarning munosabatlarini to'g'rilash zarurligi yuzaga keldi.

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish sharoitida davlat kasaba uyushmalari bilan o‘zaro munosabatni shu davr uchun xarakterli bo‘lgan o‘ziga xos shakllarda amalga oshirishi kerak. Ijtimoiy siyosat sohasida diqqatga molik yo‘nalishlardan biri oilalarni qo‘llab-quvvatlash va oilaviy nafaqalardir. Evropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar orasida aholini ijtimoiy muhofazalash Belgiyada yaxshiroq tashkil etilgan. Ayni shu davlat ishchilarning ish haqlariga nisbatan oilaviy nafaqalar salmog‘i bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Ikki va uch farzandli oilalar uchun u mos ravishda 13,7% va 25,7%ni tashkil etadi, Germaniyada bu nisbatlar 3,0% va 5,8%ga teng. Belgiyada bolali oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir necha qonuniy aktlar amal qilmoqda, ularning maqsadi «ishlab chiqarish jarayonidagi hissasidan qat’i nazar har bir insonga ijtimoiy muhofaza va minimal kafolatlangan daromadni ta’minlashdir».

Hozirgi vaqtda oilalarni qo‘llab-quvvatlash siyosati oilaviy nafaqalarni ko‘zda tutadi, birinchi farzand tug‘ilgandan boshlab shunday nafaqalar to‘lab boriladi. Nafaqalar miqdori ota-onalarning professional maqomi, oiladagi bolalar soni, tug‘ilgan farzandning oilada nechanchi ekaniga bog‘liq. Bola 18 yoshga to‘lguncha, talabalar esa 25 yoshga to‘lguncha nafaqa to‘lanadi.

Bolali oilalar, shuningdek, soliq imtiyozlariga ham ega, masalan, qaramog‘idagi bolalar soniga qarab soliqqa tortilmaydigan daromad miqdorini oshirish transportdan, uy-joydan foydalanish, harbiy xizmatga chiqarish bo‘yicha. Onalikni muhofaza qilish va bolalar muassasalari instituti tashkil etilgan, enagalar va tarbiyachilar xizmati, oilalarga yordam ko‘rsatish xususiy xizmatlari shakllantirilgan.

Avstriyada ham oilalarga yordam ko‘rsatish tizimi ancha rivojlangan. Bu erda mazkur masala Onalik akti va Ota-onalar ta’tili to‘g‘risidagi aktlar bilan tartibga solinadi. Bolalar nafaqalari soni bir talay. Masalan, ota-onalar ta’tili davridagi nafaqa, farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq nafaqa, tug‘ishdan keyingi davr uchun nafaqa (farzand 12 yoshga to‘lguncha), bolalarni parvarishlash uchun mahalliy nafaqalar. Bu davlatlarda bolali onalar uchun soliq imtiyozlari tizimi mukammal tuzilgan.

Farzand voyaga etgunga qadar uning parvarishi, ta'lim olishi va boshqalar uchun sarflanadigan xarajatlarni davlat tomonidan qisman kompensatsiyalab turish uchun ota-onalarga ajratiladigan bolalar nafaqasi ko'pgina xorijiy davlatlarda oilaviy nafaqalar sirasiga kiritilib, ko'proq ota-onalik nafaqalari deb yuritiladi. Bolalar nafaqasi jahonning barcha davlatlarida ham mavjud emas. Osiyo, ayniqsa, Afrikadagi aksariyat davlatlarda bolali oilalarni ijtimoiy muhofazalash tizimi etarlicha shakllanmagani bois bunday nafaqalar berilmaydi.

Rivojlangan g'arb davlatlarida bolalar nafaqasi asosan voyaga etmagan farzandlari bor oilalar uchun ajratiladi. Bu nafaqa Fransiya, Buyuk Britaniya, SHvetsiya kabi davlatlarda 16 yoshgacha farzandi bo'lgan oilalarga berilsa, Belgiyada farzand 14 yoshga etgach, to'xtatiladi. Aksariyat xorij davlatlarida bizda yaqindagina joriy etilgan bolalar nafaqasini faqat muhtoj oilalarga to'lash tamoyili ilgari mavjud, ya'ni bolalarga nafaqa belgilashdan oldin oilaning shu nafaqaga qay darajada muhtoj yoki muhtoj emasligi aniqlanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada dastavval, oilaning daromadlari tekshiruvdan o'tkaziladi, agar oilaning daromadlari yashash minimumidan yuqori bo'lsa, nafaqa belgilanmaydi. Bundan tashqari, ushbu nafaqa olish uchun murojaat qilgan oila so'nggi ikki yil ichida kamida olti oy mamlakatda istiqomat qilgan bo'lishi kerak.

Fransiyaning bolalarga nafaqa to'lash mexanizmi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bolalar nafaqasi asosan tadbirkorlar va yakka tartibdagi mehnat bilan shug'ullanuvchilarning daromadlaridan to'lanadigan foizlik sug'urta badallari hisobiga tarkib topadigan mablag'lardan to'lanadi. Nafaqa olish uchun oilada kamida ikkita farzand bo'lishi lozim. Agar farzand davolanish, o'qish va boshqa sabablar bilan

3 oy Fransiya tashqarida bo'lsa, nafaqa to'xtatiladi.

Nafaqa miqdori:

2 farzand uchun- ish haqining 32,2%, 3 nafari uchun- 27,3%, 5 nafar farzand uchun- 115,0% ga teng.

Kanadada nafaqalar soliq imtiyozlari bilan almashtirilgan, ya'ni farzandi bor ota-onalar kamroq soliq to'laydilar.

SHvetsiyada ko'p bolalai oilalarga maxsus nafaqa to'lanadi. Ammo farzandlar boshqa-boshqa nikohlardan bo'lmasligi shart. Bundan tashqari, agar ota aliment to'lashga qodir bo'lmasa yoki kam miqdorda to'lasa, qo'shimcha aliment nafaqalari to'lanadi.

AQSHda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning xususiyatlari

AQShda ijtimoiy yordam tarmog'i quyidagi ikki asosiy guruhga birlashtirish mumkin bo'lgan bir necha katta-kichik dasturlarni o'z ichiga oladi: qashshoqlikka qarshi kurash dasturlari va sug'urta tarzidagi dasturlar. Birinchi guruhga kiruvchi dasturlar aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. YOrdam olish huquqi va nafaqa miqdori insonning boshqa manbalardan olgan daromadlarining salmog'i, shuningdek, uning jamg'armalariga bog'liq. YOrdam olishning boshqa variantlari ham mavjud, masalan, taklif etilgan ishga joylashishi, kasbiy ta'lim olishga rozilik bildirish va h.k. fuqarolarni dasturlarga qo'yish uchun nomoliyaviy mezonlar ham mavjud. Ba'zi dasturlar faqat urush veteranlari, 65 yoshdan oshgan keksalar, yosh bolali oilalarga yordam ko'rsatishga qaratilgan. Sug'urta tarzidagi dasturlar murakkab vaziyatlarda alohida shaxslar yoki oilalar turmush darajasini tutib turishga ko'maklashadi. Bu dasturlarning maqsadi - boy berilgan daromadning (ishsizlik, travmatizm oqibatida va h.q.) o'rnini qisman bo'lsada qoplash.

Shu bilan birga, xususiy dasturlar ham mavjud, masalan, ish beruvchilarning mablag'lari hisobiga shakllanadigan xususiy pensiya tizimlari. Garchi xususiy dasturlar ijtimoiy yordam tarmog'iga kirmasa-da, davlatdan yordam olishga talabgorlarning muhtojlik darajasini aniqlashda ularni hisobga olish darkor.

Ko'plab dasturlar federal qonunlar bilan tartibga solinadi. Ularning bir qismi federal xukumat tomonidan moliyalanadi va amalga oshiriladi, ammo ko'plab dasturlar shtatlar hukumatlari tomonidan bajariladi, xarajatlar esa federal hukumat va shtatlar o'rtasida taqsimlanadi.

Ta'kidlash lozimki, turli dasturlarning amalga oshirilishiga qaramay AQShda hozirda ham qashshoqlikning ma'lum darajasi saqlanib qolgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, AQSh aholisining 15,0% qashshoqlik chegarasida.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning Yaponiya modeli

Yaponiyada davlat tomonidan aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishning keng tarqalgan turlari quyidagilardan iborat:

- I. Hayot kechirish uchun subsidiyalar;
- II. Ta'lim olish uchun nafaqalar;
- III. Uy-joy uchun nafaqalar;
- IV. Tibbiy nafaqalar;
- V. Bola tug'ilishi munosabati bilan beriladigan nafaqalar;
- VI. Dafn etishga beriladigan nafaqalar;
- VII. Ishga tayyorgarlik ko'rish uchun beriladigan nafaqalar(kiyim, transport xarajatlari va boshqalar);

Aholini ijtimoiy muhofazalash va ijtimoiy ta'minot tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: ijtimoiy sug'urta va tibbiy sug'urta, ijtimoiy xizmat ko'rsatish va jamoatchilik yordami.

Yaponiyada ijtimoiy sug'urta o'zining milliyligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu erda ijtimoiy sug'urta tushunchasi keng tushuncha bo'lib, ish bilan bandlik sug'urtasi, bemorlik, shikastlanish, nogironlik va keksalik nafaqasi sug'urtalari va boshqalarni nazarda tutadi. Yaponiyada umumiy sug'urta instituti tashkil etilgan bo'lib, shuning hisobiga tibbiy yordam va nafaqa sug'urtasi huquqiga barcha aholi qatlamlari ega bo'lgandir. «Ishsizlikka qarshi sug'urtasi» va «ishchilarni kompensatsiyalash sug'urtasi haqida»gi qonun 1947 yilda qabul qilingan bo'lib, mazkur sug'urtalar turida ishlab chiqarish jarayonida orttirilgan shikastlanish va kasalliklarga sarflanadigan xarajatlar bilan qoplanadi. 1974 yilda «Ish bilan bandlikni sug'urta qilish haqida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun amaldagi 1947 yilda qabul qilingan «Ishsizlikka qarshi sug'urta haqida»gi qonuning o'rniga kuchga kirdi. Mazkur qonunda ishsizlik nafaqasini to'lash bilan bir qatorda ,avvalgi maoshining 60-80,0%ni tashkil qiladigan va 3 oydan 10 oygacha to'lab boriladigan nafaqa bilan birga, ish bilan bandlikni barqarorlashtirish, ishsizlikning oldini olish kabi tadbirlar ham qayd etilgan. SHu bilan birga, ish joyini yo'qotganlar uchun yangi mutaxassislikni

egallashda yordam ko'rsatish yo'li bilan ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish ham nazarda tutilgan. Ayrim aholi guruhlarining mehnat bozoridagi holati yaxshilanishida «Mehnat qilish imkoniyatlarining tengligi haqida»gi qonun katta rol o'ynadi. Ushbu qonun ayollarning ish joylarida kamsitilishlariga chek qo'yib, ularni umumiy ishlab chiqarish jarayonida o'z xohishlaridan kelib chiqqan holda ishtirok etishlari imkoniyatini yaratdi. Mazkur yo'nalishda yana «Keksa kishilarning bandligini barqarorlashtirish haqida»gi qonun ham katta ahamiyat kasb etdi. Yaponiyada ishsizlarga ajratilgan nafaqa xarajatlari ancha kam bo'lib, bu o'z navbatida ishsizlar sonining ham ancha kam bo'lishini taqazo etadi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, umumiy hisob bo'yicha Yaponiya ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy faol aholiga ko'rsatayotgan tibbiy, keksalik nafaqasi va boshqa nafaqalar sohasida rivojlangan davlatlardan orqada qolayotgani yo'q.

Tibbiy sug'urtadan tushadigan to'lovlar tibbiy xizmat ko'rsatishga, tibbiyot muassasalarini zamonaviylashtirish, avvalombor sifatliroq tibbiy asbob-uskunalar olish, vrachlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish kabi tadbirlarga sarf qilinadi. Mamlakat miqyosida 1961 yildan bo'yon «Davlat tibbiy sug'urtasi haqida»gi qonun amalda bo'lib, mazkur qonunga binoan bu turdagi sug'urta dasturini boshqarish bilan bog'liq sarf-xarajatlar mahalliy hukumat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi.

Yaponiyada ijtimoiy xizmat ko'rsatish deganda, biz aholining barcha ijtimoiy guruhlari orasida, yordamga muhtoj bo'lgan shaxslarga, maxsus muassasalarda yoki uylarida kun davomida ko'rsatiladigan yordamni tushunishimiz lozimdir. Aholining ushbu toifasiga nogironlar, qariyalar va bolalar kiradilar. Mazkur xizmat turi «Bolalarning farovonligi haqida», «Nogironlarning farovonligi haqida», «Aqli zaif bolalarning farovonligi haqida» va «Qariyalarning farovonligi haqida» qonunlari asosida amalga oshiriladi. SHuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy xizmat ko'rsatish uchun javobgarlik hukumatning mahalliy tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan bo'lib, u teng ulushda davlat va mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladi.

Yaponiyada «Jamoatchilik yordami haqida»gi qonun qabul qilingan bo'lib, 1950 yilda qayta ko'rib chiqilgan va unga qo'shimchalar kiritilgan. Jamoatchilik yordami Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy ta'minot vazirliklari tomonidan belgilangan turmush darajasidan past darajada yashayotgan oilalarga qaratilgandir. Bunday oilalarga nafaqalar to'lanib, bepul xizmat ko'rsatilib beriladi. Har ikkala xizmat turi ham umumdavlat va mahalliy soliqlar hisobiga moliyalashtiriladi.

Bolalar sog'ligini saqlash tizimining zamonaviy poydevoriga «Bolalar farovonligi haqidagi» qonun qabul qilinishi bilan asos solingan edi. Mazkur qonun YAponiya Konstitutsiyasining 25-bandida ko'rsatilgan «bolalarning zarur turmush sharoitiga va turmush sifatiga bo'lgan huquq»lari asosida qabul qilingandir. Qonun davlat va mahalliy hukumat organlariga o'sayotgan yosh avlodning sog'ligi uchun kerakli bo'lgan g'amxo'rlik qilish majburiyatini yuklaydi. Mazkur vazifani amalga oshirishda bolalarning turmush tarzini yaxshilash bilan shug'ullanuvchi jamoalar faol ishtirok etadilar. Ularning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- I. emizikli va homilador ayollarning moddiy sharoitini o'rganish;
- II. aqli zaif onalar istiqomat qiluvchi oilalarni o'rganish va boshqalar.

Zarur hollarda ular hukumatning mahalliy organlariga kerakli choralar ko'rish haqida murojaat qilish huquqiga egadirlar. 1965 yilda qabul qilingan «Ona va bolaning sog'ligi haqida»gi qonunga asosan joylarda maxsus tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ular barcha homilador ayollarning ro'yxatini olishadi, yangi tug'ilgan chaqaloqqa g'amxo'rlik qilish, onaning sog'ligi haqida, homiladorlikning rivojlanishi, bola tug'ilishi haqidagi ma'lumotlar, bola tug'ilgach esa chaqaloqning sog'ligi haqida, birinchi vrach ko'rigi, emlashlar, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumotlar qayd etilgan kitobchalar bilan ta'minlaydilar.

I-bob bo'yicha xulosa

Xulosa o'rnida aytganda bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas, balki barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlari bu eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir. Shunday qilib, biz komil ishonch bilan ayta olamizki, mustaqillik yillari mobaynida biz yangi jamit asoslarini yaratishga o'zgarishlar muqararligining negizini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik¹¹.

Ijtimoiy sohani asosiy mazmuni¹² – aholi turmush farovonligini oshirish hisoblanadi. Aholining turmush farovonligi darajasi sanoat va qishloq ho'jaligi maxsuloti hajmi bilangina emas balki ijtimoiy soxani rivojlantirish axvoli, darajasi, asosan byudjetli tibbiyotni, uy joy qurilishini rivojlantirish hamda xizmat ko'rsatishni tashkil qilish nazarda tutilgan qismi bilan xam bog'liq. Binobarin, iqtisodiyotni inson tomonidan xar bir oilaning kundalik zaruriti va xayotiy ehtiyojlari, aholining individual talablari tomoniga yo'naltirish ishlarimizning o'zagi bo'lib qolmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 26-dekabrdagi «Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun Ijtimoiy infratuzilmalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bu boradagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim huquqiy asos bo'lmoqda.

Keksalar, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularning holidan xabar olish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish xalqimizning azaliy qadriyatidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va dunyoda "o'zbek modeli" deya e'tirof etilgan taraqqiyot strategiyasining muhim tamoyillaridan biri – kuchli ijtimoiy siyosat yuritish ekanligi bu borada muhim omil bo'ldi. Mamlakatimizda xalqimizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va aholiga Ijtimoiy infratuzilma ko'rsatish bo'yicha

¹¹ Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir". Toshkent: "O'zbekiston", 2010-yil.

¹² Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Muxamedjonova G. "Ijtimoiy Soha Iqtisodiyoti" Uslubiy Qo'llanma. T.: TDIU, 2008. -160 B.

zamonaviy tizim yaratildi. Bu nogironlarni, yolg'iz keksalarni va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamini tibbiy-ijtimoiy himoyayalash, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashda o'z samaralarini berayotir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hozirga qadar aholiga Ijtimoiy infratuzilmalar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va yuqorida qayd etilgan bir qator qonunlar asosida amalga oshirilardi. Globallashuv jarayonining tobora chuqurlashuvi, huquqiy munosabatlarning takomillashayotgani bu yo'nalishda alohida qonun ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Qonunni tayyorlash jarayonida taraqqiy etgan ilg'or mamlakatlarning bu yo'nalishdagi qonunchilik tajribasi o'rganildi. Xalqimizning milliy qadriyatlari va istiqloq yillarida bu sohadagi ishlarni tashkil etishda orttirilgan ilg'or tajribalar tahlil etildi. Qonun loyihasi keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi.

Bozorning ijtimoiy muammolarini birinchi o'ringa qo'yish jahon iqtisodiy rivojlanishining tabiiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi, bunda iqtisodiyotning samaradorligini yanada oshirish masalalari sezilarli darajada pirovard oqibatda ishlab chiqarishning inson omilini rivojlantirishdan iborat bo'lishi mumkin bo'lgan ham eski, ham yangi ijtimoiy muammolarning hal etilishiga bog'liq bo'lib qoladi. Agar inson omili ijtimoiy muhofaza muammolari doirasida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, fikrimizcha, xo'jalik yuritishning bozor tizimi shart-sharoitlarida aholini ijtimoiy muhofazalashning butun tizimi aslida kelgusidagi iqtisodiy o'sishning asos-jamg'arilgan inson potensialini saqlab qolish va rivojlantirish kabi bosh vazifani (yuqorida qayd qilingan ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vazifasidan tashqari) hal qilishga bo'ysundirilganligini tan olmaslik mumkin emas. O'tish iqtisodiyotini, bozor islohotlari jarayoni rivojlanishda bo'lgan mamlakatlarda avval boshdanoq bozor mexanizmlarini, bunday vazifalarni hal qilishi lozim bo'lgan ijtimoiy sohaning davlat tomonidan boshqarilishi bilan birlashtirishni mo'ljalga olish g'oyat muhim. Aksariyat xorij davlatlarida bizda yaqindagina joriy etilgan bolalar nafaqasini faqat muhtoj oilalarga to'lash tamoyili ilgaridan mavjud, ya'ni bolalarga nafaqa belgilashdan oldin oilaning shu nafaqaga qay darajada muhtoj yoki muhtoj emasligi aniqlanadi.

II-bob. Qoraqolpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani Ijtimoiy soxani qo‘llab quvvatlashning xozirgi xolati tahlili.

2.3 Ijtimoiy infratuzilmaning hozirgi holati va rivojlantirish xususiyatlari

Ijtimoiy infratuzilma-bu insonning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida oqilona faoliyat uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan barqaror moddiy unsurlar majmuasi. Biroq, bu unsurlar tasnifiga yondoshish turli xil, bu faqat sezgir emas, balki jiddiy amaliy ahamitga ega.

Davlat budjetini birinchi marotaba yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,02 foiz miqdorida profitsit bilan tasdiqlash taklif etilmoqda.

Inson faoliyati sohalarida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini tahlil qilishda uning tarkibiy qismlarini ajratish mumkin:

- Mehnat faoliyati infratuzilmasi;
- Atrof muhitni muhofaza qilish va inson salomatligi uchun infratuzilma;
- Ijtimoiy-siyosiy faoliyatning infratuzilmasi; ijtimoiy-madaniy infratuzilma;
- Iijtimoiy va maishiy infratuzilma;
- Shaxslararo va ijtimoiy muloqot infratuzilmasi.

Ijtimoiy infratuzilma quyidagi ikki guruhga ajratiladi¹³:

- ❖ jamit miqyosida tashkil etiladigan;
- ❖ korxonalar miqyosida tashkil etiladigan.

Jamit miqyosida tashkil etiladigan ijtimoiy infratuzilmaning tarkibiga quyidagi sohalar kiradi: sog‘liqni saqlash, ta’lim muassasalari, madaniyat, sport-sog‘lomlashtirish muassasalari, umumiy ovqatlanish shaxobchalari, uy-joy kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat korxonalari, jamoat transporti, aloqa xizmatlari va boshqa shu kabilar.

Korxona miqyosida tashkil etiladigan ijtimoiy infratuzilmaning tarkibiga quyidagi sohalar kiradi: xodimlarni ishga olib boruvchi transport, dam olish

¹³ M.M.Tashxodjayev, R.X.Karlibayeva, Z.A.Ashurov “Ishlab Chiqarish Infratuzilmasi” O‘quv Qo‘llanma TDIU: 2014.

xonalari, ovqatlanish shaxobchalari, yuvinish xonalari, mehnat muhofazasi shaxobchalari va boshqa shu kabilar.

Mazkur sohalar asosan insonlarning turmush farovonligini ta'minlash va mehnat sharoitlarini xshilashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy infratuzilma barcha unsurlarini majmua tarzida muvozanatlangan rivojlantirishga e'tibor berish. lozim Ijtimoiy infratuzilmaning me'yoriy bazasi va ijtimoiy normativlar tizimi quyidagilardan iborat bo'lishi kerak¹⁴:

- a) maqsadli normativlar.
- b) ijtimoiy infratuzilma muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlari bilan ta'minlanishning eng kam darajasi;
- d) faoliyat sharoitining kompleks ijtimoiy andozalari;
- e) iqtisodiy normativlar (qiyosiy sarflar normativlari, foydalanilayotgan resurslar uchun to'lovlar).

Shu tariqa insonning uy-joyga ega bo'lish, sog'lig'ini saqlash, ta'lim olish, hordiq chiqarish, mehnat qilish va hokazo huquqlari amalga oshadi. Mazkur eng kam daraja ijtimoiy iste'mol fondlari hisobiga ta'minlanishi shart, bu holda ular turmush jami sharoiti bo'yicha barcha ijtimoiy guruhlarini qinlashtirish rolini o'ynaydi. Bu jihatdan ayrim iqtisodchi olimlarning uy-joy qurilishini o'tkazish to'g'risidagi fikrlariga qo'shilish lozim, bunda davlat turarjoy maydoni va obodonlashtirish bo'yicha belgilangan, ijtimoiy kafolotlangan me'yor doirasida turarjoy binosining bir qismini qurish uchuyangina mablag' ajratadi. Ijtimoiy normativlar tizimini ishlab chiqishda mintaqaviy xususitlar, shahar va qishloq joylarda, aholi turmush tarzi va boshqa ko'p jihatlar o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olmoq lozim. Ular doirasida quyidagi jamlama omillarni ajratish mumkin¹⁵:

Geografik omillar - tabiiy iqlim sharoitlari, biologik xususitlari, rekreatsi imkonitlari va ulardan foydalanish darajasi; tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik va tabiatdan foydalanish xususitlari;

¹⁴ R. O'. Ergashev, S. N. Xamrayeva Qishloq Xo'Jaligi Infratuzilmasi Iqtisodiyoti O'quv qo'llanma Toshkent 2012

¹⁵ R. O'. Ergashev, S. N. Xamrayeva Qishloq Xo'Jaligi Infratuzilmasi Iqtisodiyoti O'quv qo'llanma Toshkent 2012

Demografik omillar - aholi joylashuv tarkibi, shaharlashuv (urbanizatsiya) darajasi; aholining soni va tarkibi, ko'payishi, tabiiy ko'chib yurish ta'sirida joylashuvning o'zgarishi, aholi migratsisi, aholi va mehnat resurslarining jinsiy va yosh tarkibi; oilalarning shakllanishi, migratsi oqimlari tarkibi, aholining milliy tarkibi, aholining milliy tarkibi va hokazo;

Iqtisodiy omillar – iqtisodiyotning ixtisoslashuvi, mintaqaning iqtisodiy potensiali, ishlab chiqarish omillarining mavjudligi, mintaqaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ulushi, hozirgi bosqichda va istiqbolda iqtisodiyotning tarkibi, boshqaruv tizimi, mintaqada ilmiy-texnik taraqqiyoti tusi;

Ijtimoiy omillar - shahar va qishloq aholisining turmush tarzi, milliy va maishiy xususitlar, an'anaviy etnik qadritlar, ularning me'morchilikda aks etishi; mintaqada shovchi millatlar va elatlarning, milliy va etnografik guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi hamda madaniy ehtiyojlar tusi va til taraqqiyoti.

Mazkur omillarni mintaqaviy xususitlar va boshqa alomatlardan kelib chiqib, sifat va aralash tavsiflar bo'yicha tashkil qilish; ulardan hal etish zaruratiga ko'ra, eng dolzarb omillarni ajaratish mumkin. Iqtisodiyotning ijtimoiy sohaga yo'naltirilishi ijtimoiy infratuzilmani mustaqil boshqaruv obyekti, uni rivojlantirish muammolariga tizimli yondashuv sifatida alohida ajratib olishni shart qilib qo'ydi.

Infratuzilmaning yaxlit boshqaruv obyekti sifatida ajratilishi butun xalq xo'jaligi muvozanatli va mutanosiblik asosida rivojlantirilishi, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi nomutanosibliklarga barham berish imkonini yaratadi. Ijtimoiy adolat prinsiplarini ro'yobga chiqarishdan iborat maqsad ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalarini mahalliy boshqaruv idoralari, hokimliklar qo'liga topshirishni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ijtimoiy infratuzilma taraqqiyotini boshqarishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat¹⁶:

- qishloq kengashlari, tuman, shahar va viloyat hokimliklari rolini qayta ko'rib chiqish;

¹⁶ R. O'. Ergashev, S. N. Xamrayeva Qishloq Xo'jaligi Infratuzilmasi Iqtisodiyoti O'quv qo'llanma Toshkent 2012

- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini hisobga olib, ijtimoiy sohada islohotlar dasturini ishlab chiqish;
- hujjatlar va tavsilar, me'yoriy yo'riqnomalar bazasini tayyorlash;
- mintaqaviy xususitlar va omillarni hisobga olish, bularga ijtimoiy me'yor ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqishga diqqat qilish;
- uy-joy muammolariga e'tibor berish va yakka tartibda uy-joy qurilishini rivojlantirish.

Shahar joylarda ijtimoiy infratuzilma taraqqiyotini boshqarish muammolari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan mablag'lar va resurslarni boshqarishga oid barcha vazifalarning mahalliy boshqaruv idoralari qo'lida jamlanishiga erishish;
- xo'jaliklar, tarmoqlar va hududlarning o'zaro ta'siri tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;
- shahar va qishloq ijtimoiy infratuzilmasini yanada integratsiya qilish, bunda shu tizimlarga xos ijobiy jihatlarni butun choralar bilan rivojlantirish hamda ularning noxush jihatlarni imkon qadar cheklash (yoki bartaraf qilish) maqsadini ko'zlash;
- shaharni ijtimoiy qayta qurishning maqsadli, kompleks dasturini tuzish va amalga oshirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, faol demokratik siyosat yuritish.

Mazkur talablar mintaqa ijtimoiy infratuzilmasi xo'jalik mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Xo'jalik yuritish yangi iqtisodiy mexanizmining yaratilishi mahalliy byudjetga ko'pgina mablag'larni jalb etish imkonini beradi, ammo muayyan joy sharoitida mana shu barcha resurslar har holda korxona va tashkilotlar hisobiga shakllanadi. Odatda tahlil butun jamitning ijtimoiy infratuzilmasi bilan boshlanadi. Boshqarish amaliyotida davlatni tavsiflaydigan ham umumiy, ham hisoblangan ko'rsatkichlar, ayrim infratuzilma elementlarining xavfsizlik va rivojlanish

tendentsiyalari keng qo'llaniladi. Uning holati o'zi bilan emas, balki ijtimoiy o'zgarishning ko'rsatkichi va darajasi sifatida. Shuning uchun ijtimoiy infratuzilma ko'rsatkichlarining rivojlanishi moddiy-texnik bazaning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini va jamiyatni rivojlantirishdagi muhim (mazmunli) jarayonlarni doimiy o'rganishga imkon beradi.

Shu bilan birga, iqtisodiy jihatdan nisbatan yopiq iqtisodiy tizimda ijtimoiy infratuzilmani o'rganish katta iqtisodiy hududning darajasi ham muhimdir. Ushbu infrastrukturaning ko'rsatkichlarini boshqa xo'jalik organlarining rivojlanish ko'rsatkichlari bilan taqqoslash imkoniti mavjud va shu asosda tahlil qilinayotgan ob'ektni samarali choralar ko'rish uchun erishilgan, oldindan va kechikish haqida boy ma'lumot olish uchun. Ushbu darajadagi hududning tabiiy va iqlimiy va milliy xususitlariga qarab, uning rivojlanish koeffitsientlariga ma'lum o'zgarishlar kiritilmoqda.

Ma'muriy bo'linma (respublika, hududlar, hududlar, shahar va tumanlar) ijtimoiy infratuzilmasi umumiy muammolarni aniqlash uchun zarur element hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, ijtimoiy infratuzilmaning ayrim elementlari allaqachon yo'q bo'lib ketishi mumkin: ijtimoiy tashkilot darajasining pastligi, elementlarning ko'pligi cheklangan. Infratuzilma elementlarining mavjudligi yoki yo'qligi uchun asosiy mezonlar butun aholining kundalik hayot ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi. Ijtimoiy infratuzilma, ayniqsa, ishlab chiqarishni tashkil etish, ishchi jamoa darajasida namoyon bo'lishi mumkin. Garchi bu nuqtai nazar ilmiy adabiyotda chuqur asoslashni topmagan bo'lsa-da, ijtimoiy infratuzilmaning ushbu darajasiga nazariya va amaliyotga ko'proq e'tibor berilishi kerak. Bu borada uchta cheklovni ko'rish kerak.

Birinchidan, ijtimoiy infratuzilmaning barcha elementlari jamoa darajasida rivojlanmaydi: odamlar ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish mintaqaviy va shahar infratuzilmasi darajasida amalga oshiriladi deb taxmin qilinadi.

Ikkinchidan, korxonada ijtimoiy infratuzilmaning haqiqiy ilmiy ifodasi kollektivning imkonitlari bilan cheklangan, hududiy darajadagi rivojlangan

me'yoriy ko'rsatkichlarning yo'qligi bilan ajralib turadi, bu esa moddiy unsurlarni jamitning boshqa ijtimoiy tashkilotlarida o'xshash ob'ektlar bilan taqqoslashni qiyinlashtiradi.

Va nihoyat, kollektiv darajasida mehnat ko'rsatkichlari, ijtimoiy-demografik ma'lumotlar va boshqalarni hisobga olgan holda koeffitsientlarga ko'pgina o'zgarishlar kiritiladi.

Insonning yashash muhitini va rivojlanishini belgilovchi ijtimoiy infratuzilma hududlarda aholi turmush sifatini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy me'yorlar tizimi va byudjetni moliyalashtirish tizimi orqali ijtimoiy infratuzilmaning ko'p qismini rivojlantirishni qat'iy tartibga solishga qaramay, mintaqaviy farqlash muammolari juda katta. Iqtisodiy inqirozning saboqlari, qarzдорlikning keng tarqalishiga, qarz hayotida va kelajakni iste'mol qilishda qurilgan G'arb iqtisodining haqiqiy moddiy va realizatsi o'rniga virtual emas, modeli to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. Davlatning ijtimoiy majburitlarini shakllantirish - mehnat unumdorligini oshirish, mamlakatlar aholisining ayrim qatlamlarida shakllanishiga - ijtimoiy mas'uyalitsizligi bilan bog'liq bo'lgan har qanday aloqadan tashqari ". Shu munosabat bilan so'nggi yillardagi yangi ijtimoiy modeli yangi iqtisodiyotning qiyinchiliklariga qarshilik ko'rsatdi.

Ijtimoiy infratuzilma davlatni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash darajasi jihatidan farq qiluvchi sanoat komplekslaridan iborat. Shu bilan birga, an'anaviy tarzda ijtimoiy infratuzilma bilan bog'liq bo'lgan barcha tarmoqlar hududiy bog'lanish va iste'molchilarga yaqinlikning umumiy xarakteriga ega. Bugungi kunda yangi ijtimoiy muassasalar tarmog'ini rivojlantirish hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ijtimoiy infratuzilmaning aksariyat qismini tijoratlashtirish va barcha tarmoqlarning faoliyatida bozor komponentining mavjudligi xizmatlarni etkazib berish va talab qilish uchun bozorni rejalashtirish tizimini shakllantirish, bu tizimni byudjetni ijtimoiy va byudjet sohalari uchun an'anaviy tizimga birlashishi muammosini keltirib chiqaradi.

Turli xo'jalik sub'ektlarining manfaatlari ijtimoiy xizmatlar bozorida faoliyat ko'rsatmoqda: davlat-shahar, xususiy, korporativ, jamoat, shaxsiy. Ushbu sub'ektlarning har biri bozorning ishlashiga va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga ta'sir qiladi.

Ko'rib chiqilgan sub'ektlarning manfaatlarining bozor komponenti turli xil ildizlarga ega¹⁷:

- davlat-maishiy infratuzilma , birinchi navbatda, hududdagi xizmatlar hajmi va sifatini ta'minlashga qaratilgan;
- tijorat infratuzilmasi raqobatga, shu jumladan davlat-maishiy infratuzilma bilan, inson va moliyaviy oqimlarni ushlab turishga qaratilgan;
- korporativ ijtimoiy infratuzilma , avvalambor, korporativ mehnat resurslari uchun sifatni xshilash va joylar bilan aloqalarni kuchaytirish (shu jumladan rasmiylar bilan) kafolatlangan ijtimoiy imtiyozlarni taqdim etishga qiziqish;
- jamoat tashkilotlari xizmatlar bozorida o'z qadritlarini ro'yobga chiqarish, aholi dasturlarini ta'minlashga qiziqish bildirmoqda.

Ushbu manfaatlar o'zlari o'rtasida muvofiqlashtirilmaydi, bu esa o'zaro raqobatning paydo bo'lishiga olib keladi va resurslardan oqilona foydalanishga emas. Bu ijtimoiy rivojlanish dasturlarida (jumladan, davlat va kommunal darajadagi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarida), ijtimoiy infratuzilmaning boshqa sub'ektlarining harakati aks ettirilmayotganda namoyon bo'ladi.

Faoliyatni muvofiqlashtirish muammolarini hal qilish uchun muallif ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik metodologisini qo'llashni taklif qiladi. Bunday hamkorlikning asosi aholining va jamitning ijtimoiy ehtiyojlarning iste'mol darajasini shakllantirishga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq. Bu ehtiyojlar aniq va asosan mintaqaviy talab omillariga bog'liq.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar

O'tgan asrning 90-yillariga qadar Rossida (bundan keyin SSSR) ijtimoiy xizmat ko'rsatish bozorida ikki asosiy ishtirokchi - davlat (mahalliy hokimit

¹⁷ R. O'. Ergashev, S. N. Xamrayeva Qishloq Xo'jaligi Infratuzilmasi Iqtisodiyoti O'quv qo'llanma Toshkent 2012

vakillari) va korxona (tarmoq sektori) mavjud edi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy xizmatlar bozori tarkibiga turli xil manbalarga ega bo'lgan rejalashtiruvchi komponentlar kiradi.

Ijtimoiy infratuzilmaning joriy va investitsi sarf-xarajatlarini moliyalashtirishda davlat-shahar, korporativ, jamoat va xususiy xarakterdagi iste'molchilar, shuningdek, mintaqaning aholisi jalb qilinadi.

Umuman olganda, iste'molchilarni moliyalashtirish, ularning joriy byudjeti va ishchilar (aholisi) uchun ijtimoiy xizmatlarning rivojlanish byudjetiga bo'linishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim sub'ektlar ham byudjetni rejalashtirmoqdalar, va faqat joriy byudjet qismi rivojlanish byudjetini rejalashtirishni ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining o'zlariga sotilgan ijtimoiy xizmat daromadlari hisobidan o'z zimmasiga yuklaydi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish bozorining iste'molchilari iste'molchilar guruhlariga bo'linishi mumkin, ular asosan uzoq muddatli istiqbol rejalashtirish yoki loyihani ishlab chiqish siyosatini olib boradilar, bu esa ijtimoiy xizmatlarga sarflash uchun investitsion va joriy rejalashtirish va dizayn standartlarida ifodalanadi.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, asosan, sub'ektiv va uzoq muddatli rejalashtirishga to'sqinlik qiluvchi talabning o'ziga xos omillari (hududiy, korporativ, shaxsiy) ta'sirida. Mintaqaviy mentalitet, falsafiy va diniy qarashlar, etnik xususitlar, milliy an'analar (shu jumladan, mahsulot iste'mol qilinishidagi odatlar) va hokazolarni hududiy sub'ektiv omillar sifatida baholash mumkin: korporativ omillar orasida boshqaruv siyosati, egasining ijtimoiy mas'ulit darajasi, siyosiy ambitsilar, xayri va boshqalar kiradi.

Yuqori darajadagi eskirgan va eskirgan texnologilar sharoitida, ayniqsa, shash muhitida innovatsi almashuvisiz almashtirish siyosatini amalga oshirish mumkin emas.

Ijtimoiy rivojlanish paradigmasi yuqori investitsion ehtiyojlarga va buning natijasida ijtimoiy xizmatlarga sarflangan xarajatlarni ko'paytirishga olib keladi.

Natijada, ijtimoiy xizmatlarni ham byudjetlar, ham aholiga moliyalashtirish masalalariga olib keladi.

Rivojlanish usuli; Moliyaviy qiyinchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy infratuzilmaning bir qismi va infratuzilmani rivojlantirish uchun boshqa muammolarning yuqori darajada saqlanib qolishi, resurslar va texnologilarni almashtirishda infratuzilma sub'ektlarining innovatsion va texnologik hamkorligiga asoslangan rivojlanish metodologisi taklif etiladi.

Uslubitning birinchi bosqichi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda nomutanosibliklarni aniqlash va ularni yo'q qilish vositasini tanlashdir.

Ikkinchi bosqichda ishlatiladigan resurslar va texnologilar optimallashtirildi.

Ijtimoiy xizmatlarning o'ziga xos xususiti hududdagi sifat, mavjudlik, etarlilik va xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojdir. Ishlab chiqarishni tashkil etishning na bir muhim vazifasi ijtimoiy tizimning o'zi ishlab chiqarishning yuqori iqtisodiy samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Mamlakatimizda uch turdagi ijtimoiy infratuzilmaning salohitini oshirish rejalashtirilgan¹⁸:


- keng qamrovli (qo'shimcha xizmatlar hajmi bo'yicha);
- jadal (xizmatlar sifati).
- innovatsion (texnologini almashtirish).

Ishlab chiqarish tizimining tarkibiy qismlari (ishlab chiqarishda innovatsilar) o'zgarishi, resurslardan foydalanish sifatiga (resurslar sifatidagi innovatsilar) almashtirish va mavjud resurslarni (ishlab chiqarish tizimini tashkil etish va resurslardan foydalanishni qo'llash) samaradorligini oshirish o'rtasidagi muvozanatni o'rnatish ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun uzoq muddatli rivojlanish siyosatining asosiy belgisidir. Ushbu uslubitning uchinchi bosqichi - ijtimoiy xizmatlar bozorida innovatsilarni joriy etish uchun zarur investitsion salohitni baholashdir.

¹⁸ Sh.M.Mirziyoyev "2017 - 2021 Yillarda O'zbekiston Respublikasini Rivojlantirishning Beshta Ustuvor Yo'nalishi Bo'yicha Harakatlar Strategisi" Davlat Dasturi Ma'lumotlari

2.2 Ellikqal'a tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

Ellikkal'a tumani shimoldan Qizilqum cho'li, Sulton Uvays tog'i, G'arbdan Beruniy, Taxtak'o'pir, janubdan Amudaryo tumani va Xorazm viloyati, sharqdan Turtkul tumanlari va Navoiy viloyati bilan chegaradoshdir. Qudagi rasmda tumanimizning geografik joylashuvi ko'rsatilgan.



1-rasm. Mamlakatimiz xaritasida Ellikqal'a tumaning geografik joylashuvi¹⁹

Tuman 1977 yilda tashkil topgan bo'lib, markazi Bo'ston shaxri, jami yer maydoni 541920 gektar ga, shundan shaxar yer maydoni 768 gektar ga. Axoli soni 145,7 ming kishi, shu jumladan shaxar axolisi 18,3 ming kishi, qishloq axolisi 127,4 ming kishidan iborat.

1-jadval

Ellikqal'a tumani xaqida qisqacha malumot²⁰

	Tashkil topgan yili	Markazi	Yer maydoni (gk)	Axoli soni (ming kishi)	Shundan shahar (ming kishi)	Qishloq (ming kishi)
Ellikqal'a	1977	Bo'ston shahri	541920	145,7	18,3	127,4

Tumanda bitta tuman qaramog'idagi shahar, 1 ta shaharcha tipidagi posyolka 16 ta mahalla, 13 ta ovul fuqarolar yig'ini (Qizilqum, Guldursin, A. Navoiy,

¹⁹ Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

²⁰ www.google.com

Ellikqal'a, Amirobod, Do'stlik, Qilchinoq, Paxtachi, Qirqqiz, Saribiy, Tozabog', Sharq Yulduzi, Aqchako'l,) bor.

Tuman qishloq xo'jaligi asosan paxta va g'allachilikka ixtisoslashgan. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 387479 gektarni tashkil qiladi, shundan ekishlik maydoni 258712 gektar va qishloq joylarida yashovchi fuqarolarga 4094 gektar tomorqa yerlari ajratib berilgan.

Aqchako'l bo'yida, tuman markaziga kiraverishda salobat t o'kib turgan muhtasham San'at saroyining hashar yo'li bilan qurilgan. Zamonaviy me'morchilik andozasida, atrofi oynavand, tepa qismi kushrador qilib bunyod etilgan bu inshootning ichkarisi poytaxtimizdagi muhtasham Oliy Majlis binosidan andoza olingan. Urindiqlar, keng sahna, baland va salobatli ko'rinishga ega saroyining ichi cho'g'day lovullaydi. Sahna pardalariga qadalgan bezaktoshlar tepaga o'rnatilgan ulkan qandil nurlarida duru-javohirday tovlanadi.

Qoraqalpog'istonda yagona sanalgan shu san'at maskani atrofidagi anvoiy gullar, shovvullab osmonga otilayotgan favvoralar, yaltiroq va silliq toshlar yotqizilgan ravon maydon, bari-bari mamlakatimizning chekka shimolida o'ziga xos taraqqiy etgan tuman mavjudligidan dalolat berib turibdi.

Saroyning yon biqinida xuddi qadimgi Rim davlatining ochiq uyingohlari yanglig' qurilgan Amfiteatr 5 ming tomoshabin sig'adi. Bu erda respublika miqyosidagi turli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. 32 ta kutubxona, 12 ta klub muassasasi muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sport, bolalar sportining rivojlanib borayotgani quvonarli hol.

Bu ko'rsatkichlarni mamlakatimizning boshqa tumanlari bilan muqoyasa qilib ko'rsak, Ellikqal'a nafaqat Qoraqalpog'istonda, balki O'zbekistonda zamonaviy qiyofada shakllanib borayotgan peshqadam tumanlardan biridir. Chindan ham shunday, u Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining tayanch tumani sanaladi. Buning boisi, avvalo iqtisodiy ravnaqning muhim omili-kichik va o'rta biznes salmog'iga e'tibor qaratilganidir. Hozirgi kunda tumanda 863 kichik va o'rta biznes sub'ektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tarmoq rivoji uchun byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan joriy yilning o'tgan olti oyida 66,7 mln.

sum, bundan tashqari Orol jamg`armasi Bo`ston agentligi tomonidan 31,8 mln. So`mlik kredit ajratildi.

Ana shular hisobidan o`tgan va joriy yilning olti oyida 3910 ish o`rni ochildi. Tumanda iqtisodiy tayanch sifatida Jahon banki agentligining filiali faoliyat ko`rsatmoqda. Ushbu loyihaga ko`ra 9 million AQSh dollari miqdorida kredit ajratildi. Bu mablag` tumanda keng ko`lamda sug`orish ishlarini olib borish, bir so`z bilan aytganda qishloq xo`jaligini rivojlantirishga sarf qilinayapti. Ellikqal`a qiyofasi keyingi yillarda keskin o`zgardi. Asrimizning mo`jizaviy bunyodkorliklaridan biri deb e`tirof etilayotgan «Uchquduq-Miskin-Sulton Uvaystog`» temir yo`li ishga tushishi munosabati bilan bu erda hashamatli vokzal binosi qad rostladi.

Bugun tumanda 5 ta zamonaviy tennis korti, 20 ming tomoshabinga mo`ljallagan stadion, suzish havzasi, 18 ta futbol maydonchasi, 28 ta sport zali, 35 ta kichik futbol, 68 ta voleybol, 143 ta basketbol, 32 ta qo`lto`pi maydonchalari sport ixlosmandlari xizmatida.

2-jadval

Qoraqolpog`iston Respublikasi Ellikqal`a tumanidagi jismoniy tarbiya va sport muosassalari²¹

№	Nomi	Soni
1	tennis korti	5
2	Stadion	1
3	suzish xavzasi	2
4	futbol maydonchasi	18
5	sport zali	28
6	mini futbol maydonichasi	35
7	Voleybol	68
8	Basketbol	143
9	qo`l to`pi	32

Tumanda yangidan 3 ta bolalar bog`chasi ishga tushirildi va yana 4 tasi ishga tushish arafasida turibdi. Yuz o`ringa mo`ljallangan sanatoriyda har yili 1 ming 300 ga yaqin kishi xordiq chiqarib, o`z salomatliklarini tiklamoqdalar. Sixatgohda asosan, odam organizmining harakat a`zolari,

²¹ Qoraqolpog`iston Respublikasi Ellikqal`a tumani ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

periferik asab hastaliklari, yurak qontomir, oshqozon-ichak, teri, ginekolog kasalliklar davolanadi. Shifo maskanida 940 metr chuqurlikdan chiqqan yodbromli yodbromli ma`danli so`v og`riqni qoldirish, surilish, allergiyaga qarshi, tinchlantiruvchi, shamollashga qarshi, dizenfektsiyalash xususiyatlariga ega bo`lib, u Semashko ilmiy tadqiqot institut olimlari tavsiyasiga ko`ra qo`llanilmoqda. massaj, igna, elektr quvvati va boshqa fizioterapiya usullari bilan davolash yo`lga qo`yilgan.

Siqatgoh kengaytirilib, 300 o`ringa etkazish uchun katta qurilish ishlari olib borilmoqda. Bu erda hozirgi kunda 3 nafar oliy toifali va 2 nafar stomatolog vrach, 13 hamshira fidoiy mehnat qilishmoqda.

Shifo maskanida barcha qulayliklar yaratilgan bo`lib, 27 gektar mevali bog` hosilidan bu erda davolanuvchilar bahramand bo`lishmoqda. Sanatoriy huzurida tashkil etilgan bolalar oromgohida yoz mavsumida 400 nafar o`quvchi hordiq chiqarib, o`z salomatliklarini mustahkamladi. Ularga uch mahal issiq ovqat berilib, hastaliklari bo`lgan bolalar davolanmoqda. Zamonaviy sport anjomlari, cho`milish havzasi bolalarning eng sevimli mashg`uloti bo`lmoqda. «Ellikqal`a oltin tolasi» hissadorlik jamiyatiga qarashli «Aqchako`l» siqatgohi 1979 yildan buyon har smenada 25 kishining salomatligini tiklashga xizmat qilayapti. Bu erda umumterapiya hastaliklari davolanadi. Bemorlarga elektr quvvati, yorug`lik, shifobaxsh suv, balchiq, azakerit, parafin, massaj, ingalyatsiya bilan davolash usullari taklif etiladi.

Shifo maskanida 760 metr chuqurlikdan tarkibida brom bo`lgan ma`danli suv olinib, foydalanilmoqda. Yaqin kunlarda siqatgoh 100 o`ringa etkaziladi. Zamonaviy davolash korpusi qurilmoqda. Bu erda dam oluvchilarga 14 nafar tibbiyot xodimi namunali xizmat ko`rsatayapti. Amudaryoning so`lim sohiliga joylashgan ushbu siqatgohda bir yo`la 75 kishi hordiq chiqarib, o`z salomatliklarini tiklash imkoniyatiga ega. Bu erda dam oluvchilar uchun yaratilgan qulay shart-sharoit katta shaharlardagi sixatgohlarnikidan aslo qolishmaydi. Sixatgoh hududidan chiqqan tabiiy ma`danli suvdan 2002 yildan boshlab foydalanilmoqda.

Toshkent shahridagi «Chinobod» sanatoriysi bilan hamkorlikda bemorlarni davolashning zamonaviy usullari qullanilayapti.

Xorazmning mumtoz ashula, suvora va maqomlari xalqimizning bebaho merosi hisoblanadi. Bu bebaho anʼanalar faqat qadim tarixiy meros boʻlib qolmay, balki kelajakni obod etishga qodir tuganmas manbadir. Moziydan kelayotgan maʼnaviy boyliklarning muqaddas ruhini xalqimizga etkazishda hofiz sanʼatkorlarning xizmati beqiyos. Har bir chinakam ovoz sohibi otashnafas xonanda qalbidan otilib chiqadigan uzining haroratli ohanglari va otashin nolalari bilan maqom va suvoralar orqali millatning tarixi va oʻtmishini hayolda tasavvur etish imkonini beradi.

Xorazmda ana shunday xalq nazari tushgan mashhur hofizlarimiz Xojixon va Nurmamat Boltaevlar, Madrahim Sheroziy, Qalandar ota Qasanov, Bolabaxshi, Qutlimurod va Otamurod Xojievlar, Abdusharif Vafoev, Komiljon Otaniyozov hamda Jumanazar Bekchanovlar ana shu ulmas navolarni xalqning yuragiga joylashda katta hissa qoʻshganlar. Ushbu sharaflilar sanʼat maktabida Otajon Xudoyshukurovning alohida oʻrni bor. Chunki, Otajon aka ijrosidagi suvoralar, feruzlar, maqom yoʻllari, ayniqsa Xorazm segohi oʻziga xos va yuksak darajadagi ruhiyati bilan ajralib turadi. Tuman aloqachilari yaqinda yana bir hayrli ishga qul urdilar Bugungi kunda tuman markazida kabel televideniesi faoliyat koʻrsata boshladi. 3,5 million soʻmlik zamonaviy uskunalar sotib olindi. 4 kilometr kabel liniyasi tortilib, 100 ga yaqin abonent ulandi. Mahalliy telekoʻrsatuvlar tashkil etilmoqda. Kelgusida Sarabiy, Amirobod, Qilichinoq ovullari aholisi ham kabel televideniesini tomosha qilishadi.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun yana 10 million soʻmlik uskunalar sotib olinadi. Ellikqalʼaning «Internet»da oʻz sayti ochildi. Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 26 yillik bayrami arafasida Toshkentdagi «Aloqa radio telekommunikatsiya» masʼuliyati cheklangay jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan loyixa ana shunday imkoniyat yaratdi.

Tumanda Yurtboshimiz Farmoniga muvofiq bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha keng kulamdagi ishlar olib borilmoqda. Bu tadbirga ko'ra 37 ta bolalar sporti maydonchalarini qurish va mavjudlarini qayta ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Bugungi kunda G'.Odilov nomli shirkat xo'jaligida hashar yo'li bilan zamonaviy talablarga to'la javob beradigan sport majmui qurilishi yakunlanmoqda. Bu yil tumanda yana ana shunday 3 ta majmua bunyod etiladi.

Mavjud 5 ta zamonaviy tennis ko'rti, 20 ming tomoshabin sig'adigan o'yingoh, jahon talablariga javob beradigan suzish havzasi, 28 ta sport zali va boshqa ko'plab inshootlar sportchilar ixtiyorida. «Alpomish» kurash klubi hamda «Baxt-Ruslan» karate kulublarida 200 dan ortiq o'g'il-qizlar jismonan chiniqmoqdalar. Ular orasidan kelgusida olimpiada va jahon chempionlari etishib chiqishiga katta umid bildiramiz.

Mustaqil yurtimizda yashovchi insonlarning dunyoqarashi, onggi, madaniy saviyasini orttirish, ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Madaniyat o'choqlarida ham islohotlar o'tkazilib, davr talablariga mos ravishda targ'ibot-tashviqot ishlari yurgizilayapti.

Tumanda markazlashgan madaniyat uyi, 1 ta shahar va 3 ta qishloq madaniyat uylari, 5 ta qishloq klubi, 2 ta avtoklub aholiga madaniy xizmat ko'rsatmoqda. Jami tuman madaniyat bo'limiga qarashli klublarda 67 ta to'garak tashkil etilib, ularda 1126 kishi qatnashmoqda. O'tkazilayotgan mashg'ulotlar qatnashchilarning madaniy saviyasini oshirishga, ma'naviyatini boyitishga xizmat qilayapti. Tuman madaniyat uyi qoshida tashkil etilgan «Bo'ston» ashula va raqs xalq ansambli mehnatkashlarga kontsert dasturlarini namoyish etib, olqish olayapti.

Madaniyat maskanlarida davr talabiga mos turli tadbirlar o'tkazilayapti. Uchrashuvlar, turli mavzularda kechalar, suhbatlar, yoshlarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazishlarini tashkil qilish tadbirlari katta samara berayapti. Ma'naviyatni yanada yuksaltirishda kutubxonalarning o'rni salmoqli bo'lmoqda.

Tumanda markazlashgan kutubxonachilik tiziminint 31 ta filiali aholiga namunali xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, 2 ta tuman, 1 ta shahar kutubxonasi

ham ziyo taratmoqda. Jami tuman bo'yicha 237046 kitob jamg'armasidan 16051 nafar kitobxon samarali foydalanmoqda. Kitob zahirasi o'tgan yili 1131 ta yangi asarlar bilan boyidi.

Ziyo maskanlarida turli qiziqarli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Burqoniddin al-Marg'inoniy, Abu Mansur as-Moturudiylarning tavallud sanalariga bag'ishlangan ko'rgazmalar, kitobxonlar anjumanlari, she'riyat kechalari ko'pchilikda yaxshi taassurotlar qoldirdi. Joylarda, ayniqsa mavjud 25 ta qishloq kutubxonalarida «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida», «Tabiatni asrang», «Assalom ustozlar», «Sog' tanda-sog'lom aql» degan mavzularda kitoblar ko'rgazmalari tashkil qilinganligi yaxshi natijalar berdi. Kishilarning ma'naviyatini yanada yuksaltirishda bu ziyo maskanlari betinim faoliyat ko'rsatmoqdalar. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilash ishi tuman hokimligining doimiy diqqat-markazida. Davolash profilaktik muassasalarga homiy qilib birlashtirilgan korxona va tashkilotlar otaliq yordamlarini ayamayaptilar.

yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion gʻoyalar va texnologiyalarni qoʻllab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida”gi Farmoni imzolandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini taʼminlashga doir ustuvor chora-tadbirlar toʻgʻrisida”³⁴gi 2017 yil 8 avgust PQ-3182-son qaroriga asosan Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha sektorlarga boʻlinadi

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari tegishli Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kenesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha sektorlarga boʻlindi.

Sektorlar rahbarlariga hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini tashkil etish va hal qilish, shu jumladan, aholining eng muhim muammolarini echish yuzasidan javobgarlik yuklanadi hamda vakolatlar berildi.

Hujjatda sektorlar rahbarlari zimmasiga uy-joy kommunal va yoʻl xoʻjaligi, energiya, suv va issiqlik taʼminoti, transport qatnovi, arxitektura, arzon uy-joylar qurish, hududlarni obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish, namunaviy mahalla va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini shakllantirish sohasidagi muammolarni aniqlash hamda hal etish boʻyicha aniq maqsadga qaratilgan tadbirlarni oʻtkazish yuklatilganligi koʻrsatilgan.

Shuningdek, ular ijtimoiy muhofazaning manzilliligi, isteʼmol bozorida narxlarning barqarorligi, ijtimoiy soha obʼektlari, sogʻliqni saqlash, taʼlim va boshqa muassasalarning samarali faoliyat koʻrsatishini taʼminlash boʻyicha taʼsirchan chora-tadbirlarni amalga oshirishga masʼuldirlar.

Sektorlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

➤ uy-joy kommunal va yoʻl xoʻjaligi, energiya, suv va issiqlik taʼminoti, transport qatnovi, arxitektura, arzon uy-joylar qurish, hududlarni obodonlashtirish

³⁴ www.lex.uz

va ko'kalamzorlashtirish, namunaviy mahalla va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini shakllantirish sohasidagi muammolarni aniqlash hamda hal etish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

➤ ijtimoiy muhofazaning manzilliligi, iste'mol bozorida narxlarning barqarorligi, ijtimoiy soha ob'ektlari, eng avvalo, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa muassasalarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ hududlarni jadal iqtisodiy rivojlantirish, shu jumladan, ularning tabiiy, iqtisodiy va inson salohiyatidan samarali foydalanish, qurilishi tugallanmagan ob'ektlardan, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish va er maydonlaridan oqilona foydalanish, mahalliy byudjetlarning daromad qismi va hududning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, joylarda zamonaviy bozor infratuzilmasini tashkil etish, xizmat ko'rsatish, turizm sohalarini rivojlantirish, tadbirkorlik sub'ektlariga amaliy yordam ko'rsatish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ dehqon xo'jaliklari, tomorqa uchun ajratilgan erlardan maqsadli foydalanish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda fermer xo'jaliklariga ko'maklashish bo'yicha choralar ko'rish;

➤ fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlikda huquqbuzarliklarni, ayniqsa voyaga etmaganlar va yoshlar o'rtasida profilaktika qilish hamda ularni barvaqt oldini olish bo'yicha ta'sirchan ishlarni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga ko'ra 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

3. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aholining bandligi va real daromadlarini izchil oshirish asosida:

- hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan tasdiqlangan Aholi bandligini ta'minlash dasturini so'zsiz amalga oshirilishini ta'minlash;

- ya'ni, 2017-2021-yillar davomida sanoatni, qishloq xo'jaligini va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyatini kuchaytirish;

- Shuningdek, yil davomida ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan va mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan 34 ta tumanda 46,8 mingta ish o'rni tashkil etish, jumladan:

- sanoatda — 14 mingta;

- xizmat ko'rsatish va servis sohasida — 8,7 mingta va hk

- qurilishda — 12,5 mingta;

- qishloq xo'jaligida esa — 11,5 mingta.

Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, ularning madaniy hordiq chiqarishiga va sog'liqlarini mustahkamlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish:

- har bir tuman, shaharlardagi madaniyat va istirohat bog'lari hududida «Nuroniylar maskanlari»ni barpo etish, ularni boy kutubxona, dam olish, sog'lomlashtirish va tibbiy xizmat jihozlari bilan ta'minlash;

- ko'krak nishonlari, foto-albom, kitoblar bilan taqdirlash, nuroniylar uchun gazeta va jurnallar chiqarish, teleko'rsatuvlar tayyorlash, ularning sanatoriy-

kurortlarda dam olishlari uchun sharoit yaratish, ziyoratgohlarga ekskursiyalar uyushtirish va boshqa ijtimoiy sohaga oid islohotlarni amalga oshirish belgilangan.

2018-yili ham o'tgan yillardagi kabi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari ustuvorligi saqlab qolindi. Xususan, ijtimoiy sohani moliyalashtirish uchun 34,7 trillion so'm mablag' yo'naltirildi³⁵.

Davlat budjeti parametrlarida qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish uchun 8,5 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

2017—2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish dasturi doirasida 14 ta maktabgacha ta'lim muassasasi obyektni qurish, 256 ta obyektni rekonstruksiya qilish, 157 ta obyektni mukammal ta'mirlash va jihozlash uchun 815 milliard so'm (shundan 193 milliard so'mi xalqaro moliya institutlari mablag'lari) yo'naltirish, bu 2017-yildagiga nisbatan qariyb 3 baravar ko'p demakdir;

48 ta oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga 559,1 milliard so'm ajratish ko'zda tutilgan, bu 2017-yildagiga nisbatan 1,5 baravar ko'p;

O'zbekiston Prezidentining hududlarga tashriflari davomida berilgan topshiriqlari va davlat dasturida nazarda tutilgan vazifalarga asosan 296 ta tibbiyot muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlariga 753,6 milliard so'm yo'naltiriladi;

Tibbiyot muassasalarini, eng avvalo, oilaviy poliklinikalar, shoshilinch va tez tibbiy yordam muassasalarini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni oshirishga 915,4 milliard so'm yoki 2017-yil parametrlarida ko'zda tutilganiga nisbatan 2,5 baravar ko'p mablag' sarflanadi;

Tibbiyot muassasalarini, birinchi navbatda, qishloq vrachlik punktlari va poliklinikalarni zarur skrining tashxis va davolash uskunalari bilan qo'shimcha jihozlash uchun 50 milliard so'm ajratildi. Uy-joy – kommunal xizmatlar ko'rsatish ishlariga xarajatlar 228,6 milliard so'mni tashkil etadi, shu jumladan, ko'p qavatli

³⁵ www.stat.uz

turar joylarga tutash hududlarni obodonlashtirishga 47,2 milliard so‘m, ko‘p qavatli turar joylar fondining lift uskunalarini ta‘mirlash va almashtirishga 22,4 milliard so‘m yo‘naltirildi. Yangi tashkil etilgan “Toza hudud” davlat unitar korxonalari orqali 2017—2021-yillarda qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash, saqlash, utilizatsiya qilish va qayta ishlash tizimini takomillashtirish dasturi ijrosi uchun kelgusi yilda 163,2 milliard so‘m ajratildi.

“Toza ichimlik suvi” jamg‘armasi hisobidan ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturining bajarilishiga 584,7 milliard so‘m yo‘naltirilgan.

Shu bilan birga, transport-kommunikatsiya loyihalariga 469,2 milliard so‘m va respublika hududlarida ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishga 568,6 milliard so‘m yo‘naltirish nazarda tutilmoqda.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga sharoit ratib berish davlat boshqaruvining asosiy vazifalaridan biridir. Infratuzilma xududlarning samarali iqtisodiy o'sishi va aholi turmush darajasini yuksaltirish uchun kuchli omil bo'lib qolmoqda. Zamonaviy rivojlanishning hal qiluvchi tendentsisi infratuzilma jarayonlarini har tomonlama joylashtirishni ta'minlashdan iborat, chunki ularsiz mamlakatning iqtisodiy va to'liq ijtimoiy hayotini ta'minlash mumkin emas.

Ijtimoiy infratuzilmani o'rnatishdan, aholi, uning alohida guruhlar va assotsiatsilarining qiymat yo'nalishlari hisobga olinmaydi. "... qiymatlarni tartibga soluvchilarning mavjudligi ijtimoiy tizimlarning eng muhim xususitlaridan biridir".

3.2 Obod qishloq dasturi asosida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish xususiyatlari

Qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, yo'l-transport, muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi hamda ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish va shu asosda aholining turmush madaniyatini yuksaltirish va dunyoqarashini kengaytirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qarori ga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi "Obod qishloq" dasturi to'g'risida"gi PF-5386-sonli Farmoni ijro uchun rahbarlikka olinsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida ko'rsatilgan Farmoni bilan:

a) joriy yilning 1 apreldan boshlab respublikaning har bir tumani va shahrida, avvalambor olis va tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda 2018 yilda 2 tadan va kelgusi yillarda 3 tadan qishloq (mahalla)da aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi va darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minlashga, mazkur qishloq (mahalla)larning qiyofasini zamonaviylashtirishga va unda istiqomat qiluvchilar uchun ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan "Obod qishloq" dasturi (keyingi o'rinlarda dastur deb ataladi) amalga oshirilishi belgilab qo'yilganligi;

b) Dasturning ustuvor maqsadlari va xarajatlarning asosiy manbalari:

birinchidan, respublika byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalaridan ajratiladigan mablag'lar hisobiga aholini ishonchli tarzda ichimlik suvi bilan ta'minlash, sizot suvlar sathini pasaytirish, qishloqlarni tuman markaziga ulaydigan yo'llarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash, shuningdek, lizing asosida qishloq va tuman markazi orasida avtobus qatnovini yo'lga qo'yish;

ikkinchidan, mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan qishloq ichki yo'llari va piyodalar yo'laklarini barpo etish va ta'mirlash, yo'lbo'ylarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, sanitariya inshootlari va irrigatsiya tizimlarini barpo etish, transport to'xtash bekatlarini qurish;

uchinchidan, xalqaro moliyaviy institutlarning kreditlari hamda korxonalarning o'z mablag'lari hisobiga elektr ta'minotini yaxshilash, aloqa tizimini modernizatsiya qilish, aholiga suyultirilgan gaz va ko'mir yoqilgisini uzluksiz etkazib berish;

to'rtinchidan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlarni tubdan yaxshilashga e'tibor qaratish, bunda bog'cha, maktab va oilaviy poliklinikalarni qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish hamda tegishli xarajatlarning yarmini respublika byudjeti va maqsadli jamg'armalar hamda qolgan qismini mahalliy byudjet va mahalliy homiylar hisobidan moliyalashtirish;

beshinchidan, bozor infratuzilmasi ob'ektlarini va servis shoxobchalarini, jumladan, hammom va kichik bozor shoxobchalarini tadbirkorlarning o'z mablag'lari, tijorat banklarining kreditlari va xalqaro moliya institutlarining kreditlari hisobidan barpo etish;

oltinchidan, uy-joylarni ta'mirlashda xonadon egalariga amaliy yordam ko'rsatish, avvalambor, qurilish materiallari bilan markazlashgan holda ta'minlash, bu jarayonda keng miqyosda hashar usullarini qo'llash hisobiga hovli va atrof-hududlarni obodonlashtirish, ariqlarni tozalash, oqava suv xandaklarini barpo etish hamda muhtoj oilalar uchun homiylar va ish beruvchi korxonalar mablag'lari hisobidan uy qurib berish (ta'mirlash) va boshqalar belgilanganligi;

v) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari xuzurida "Obod qishloq" jamg'armalarini tuzish;

Iqtisodiyot vazirligiga Investitsiya bo'yicha davlat qo'mitasi va Moliya vazirligi bilan birgalikda o'n kun muddatda "Obod qishloq" jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini tayyorlab, tasdiqlash uchun kiritish topshirilganligi;

"Obod qishloq" dasturida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish manbalari:

- respublika byudjeti va maqsadli jamg'armalar mablag'lari;
- mahalliy byudjet va uning qo'shimcha mablag'lari;
- tarmoq korxonalarining mablag'lari;

- xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlarning grant mablag`lari;
- “Mahalla” jamg`armasining va boshqa tashkilotlarning homiylik xayriyalari;
- tashabbuskor tadbirkorlar mablag`lari;
- hasharlar va xayriya tadbirlarini o`tkazish hisobidan tushadigan mablag`lar;

O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga O`zbekiston Respublikasining har yillik davlat byudjeti, shu jumladan mahalliy byudjetlar parametrlarini tasdiqlashda “Obod qishloq” dasturini amalga oshirish uchun zarur miqdorda mablag`lar ajratilishini nazarda tutish;

Bunda, dastur doirasida “O`zbekenergo” AJ, “O`ztransgaz” AJ, “O`zbektelekom” AK, Respublika yo`l jamg`armasi, Avtomobil` yo`llari davlat qo`mitasining, tashkilot va korxonalar o`z mablag`larining tegishli maksadlar uchun to`g`ridan-to`g`ri moliyalashtirilishi belgilab qo`yilganligi;

g) O`zbekistan Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga, Investitsiyalar bo`yicha davlat qo`mitasi va Moliya vazirligi Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda mazkur Farmon bilan “Obod qishloq” dasturining belgilab berilgan asosiy yo`nalishlaridan kelib chiqqan holda, barcha tashkiliy chora-tadbirlar izchilligi, loyihalarni moliyalashtirish manbalari, moddiy resurslar ta`minoti bilan uzviy va chambarchas bog`langan 2018 yil uchun chora-tadbirlar rejasini o`n kun muddatda ishlab chiqib, o`rnatilgan tartibda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini tasdiqlash uchun kiritish;

“Obod qishloq” dasturi doirasida markazlashgan manbalar va mahalliy byudjet mablag`lari hisobidan bajariladigan ishlar bo`yicha buyurtmachi etib Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining “Yagona buyurtmachi xizmati” injirining kompaniyalarini belgilash topshirilganligi.

Barcha ob`ektlar bo`yicha bosh loyihachi va pudratchi tashkilotlarni eng maqbul takliflar tanlovi orqali aniqlashga ruxsat berilganligi;

Mazkur tanlovlarni tashkil etish, jarayonlarni nazorat qilish va ularning samaradorligini ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik "Davarxitektqurilish" qo'mitasi raisi B.Zakirov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari zimmasiga yuklanganligi;

d) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tuman (shahar) hokimliklari va sektor rahbarlariga dasturni amalga oshirish doirasida qamrab olinadigan joriy va kelgusi davrlarga mo'ljallangan qishloq va mahallalarning manzilli ro'yxatlarini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun quyidagi qat'iy shartlar asosida shakllantirishni ta'minlash belgilanganligi va unga ko'ra:

tuman (shahar) hududiy tashkilotlari bilan birgalikda mo'ljallanayotgan keng ko'lamli ishlarni tashkil etish va boshqarish yuzasidan tezkor maxsus shtablarni joriy etish, shu jumladan ishlarni hashar va xo'jalik usulida bajarishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, moliyalashtiriladigan qismi bo'yicha mavjud barcha imkoniyatlarni jalb etish, shu jumladan soliq yig'uvchanligini oshirish va qo'shimcha aniqlanadigan manbalardan mahalliy byudjet daromadini oshirish;

arxitektura, sanitariya va texnik talablar asosida shaxsiy mulk egalari o'z uy-joyini saqlash, mavjud tomorqalardan unumli foydalanish, er va mol-mulk soliqlarini hamda ko'rsatilgan kommunal xizmatlar uchun hisob-kitob qilish va qarzdorlikka yo'l qo'ymaslik, hashar fuqarolarning bevosita shaxsiy ishtirokini aks ettiruvchi jamoa shartnomalarini tuzish topshirilganligi;

e) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga, "Davargeodezkadastr" qo'mitasi va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi xuzuridagi Davlat arxitektura-qurilish nazorati inspeksiyasiga uy-joy, bino-inshootlar va tomorqa xo'jaliklari mulkdorlari tomonidan amaldagi talab va qoidalar buzilishi va ularga rioya etmaslik holatlariga yo'l qo'yilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy kodeksiga muvofiq tegishli choralar ko'rish topshirilganligi;

j) “Obod qishloq” dasturiga kiritilgan ob`ektlarni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash maqsadida, metall prokati, tsement, noruda materiallari, g`isht, temir-beton maxsulotlari, eshik, deraza romlari, lok-bo`yoq shifer va shu kabi boshqa asosiy turdagi mahalliy qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun korxonalarga gaz va elektr energiyasi 2018 yil 1 maydan boshlab, “O`ztransgaz” AJ va “O`zbekenergo” AJ tomonidan aholi uchun belgilangan narxlarda etkazib berish belgilab qo`yilganligi;

z) O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga, “O`zmetkombinat” AJ, “O`zqurilishmateriallari” AJ, boshqa tegishli vazirlik, idora va xo`jalik birlashmalari bilan birgalikda tsement, metall prokati, g`isht, temir-beton buyumlari, eshik, deraza romlari, lok-bo`yok mahsulotlari kabi asosiy turdagi mahalliy qurilish materiallari va jihozlarini etkazib berish uchun firma do`konlari tarmoqlarini tashkil etish choralarini ko`rish topshirilganligi;

i) O`zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasiga Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, tegishli loyiha institutlari bilan birgalikda:

“Obod qishloq” dasturiga kiritilgan qishloq aholi punktlarining bosh rejaralarini batafsil rejalashtirish loyihalari bilan birgalikda oldindan ishlab chiqishni;

2019 yil 1 yanvarga qadar qishloq aholi punktlari me`moriy qiyofasini yaxshilash tizimini takomillashtirish maqsadida shaharsozlik me`yor va qoidalariga o`zgartirishlar kiritish, zarur hollarda yangi standart va mezonlarni ishlab chiqishni;

har bir ob`ekt bo`yicha loyiha-smeta hujjatlarining davlat ekspertizasidan o`tkazilishi va qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi yuzasidan davlat arxitektura-qurilish nazorati o`rnatilishini ta`minlash topshirilganligi;

“Obod qishloq” dasturiga kiritilgan qishloq aholi punktlari bosh rejasi va batafsil rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish bilan bog`liq xarajatlar mahalliy byudjet mablag`lari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo`yilganligi;

k) O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga, Milliy axborot agentligiga, Matbuot va axborot agentligiga barcha turdagi ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda "Obod qishloq" dasturi doirasida qishloq aholi punktlarida, ayniqsa, chekka va olis hududlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlarini batafsil yoritib borish va keng xalq ommasi orasida targ'ib qilish tavsiya etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi,

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha qo'mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tumanlar hokimliklari bilan birgalikda joriy yilning 1 apreldan boshlab:

hududning har bir tumani va shahrida, avvalambor olis va tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda 2018 yilda 2 tadan va kelgusi yillarda 3 tadan qishloq (mahalla)da aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi va darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minlashga, mazkur qishloq (mahalla)larning qiyofasini zamonaviylashtirishga va unda istiqomat qiluvchilar uchun ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan "Obod qishloq" dasturini (keyingi o'rinlarda dastur deb ataladi) ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida ko'rsatilgan Farmoni bilan belgilab qo'yilgan dasturning ustuvor maqsadlari va xarajatlarining asosiy manbalari hisobidan dasturning amalga oshirilishini ta'minlasinlar.

4. "Obod qishloq" dasturi doirasida markazlashgan manbalar va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ishlar bo'yicha buyurtmachi etib - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining yagona buyurtmachi xizmati "Injirining kompaniya"si belgilandi.

Dasturga kiritilgan barcha ob'ektlar bo'yicha bosh loyihachi va pudratchi tashkilotlarni eng maqbul takliflar tanlovi orqali aniqlashga ruxsat berilsin.

Mazkur tanlovlarni tashkil etish, jarayonlarni nazorat qilish va ularning samaradorligini ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik Qoraqalpog'iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari, Qoraqalpog`iston Respublikasi Arxitektura va qurilish qo`mitasi raisi va tumanlar hokimlari zimmasiga yuklatilgan.

5. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosarlari, Qoraqalpog`iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi,

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Investitsiyalar bo`yicha qo`mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasi tumanlar hokimliklari va sektor rahbarlari bilan birgalikda dasturni amalga oshirish doirasida qamrab olinadigan joriy va kelgusi davrlarga mo`ljallangan qishloq va mahallalarning manzilli ro`yxatlarini O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Investitsiyalar bo`yicha davlat qo`mitasi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlashga kiritish uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida ko`rsatilgan Farmoni bilan belgilab qo`yilgan qat`iy shartlar asosida shakllantirishni ta`minlasinlar.

6. “Obod qishloq” dasturiga kiritilgan ob`ektlarni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash maqsadida, metall prokati, tsement, noruda materiallari, g`isht, temir-beton maxsulotlari, eshik, deraza romlari, lok-bo`yoq, shifer va shu kabi boshqa asosiy turdagi mahalliy qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun korxonalarga gaz va elektr energiyasini 2018 yil 1 maydan boshlab, “O`ztransgaz” AJ “Qoraqalpog`istongaz” hududiy filiali “Qoraqalpog`iston elektr tarmoqlari korxonasi” AJ tomonidan aholi uchun belgilangan narxlarda etkazib berishni ta`minlash topshirilsin.

7. Qoraqalpog`iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tumanlar hokimliklari bilan birgalikda tsement, metall prokati, g`isht, temir-beton buyumlari, eshik, deraza romlari, lok-bo`yok mahsulotlari kabi asosiy turdagi mahalliy qurilish materiallari va jihozlarini etkazib berish uchun firma do`konlari tarmoqlarini tashkil etish choralarini ko`rsinlar.

8. Qoraqalpog`iston Respublikasi Arxitektura va qurilish qo`mitasiga tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

“Obod qishloq” dasturiga kiritilgan qishloq aholi punktlarining bosh rejalari batafsil rejalashtirish loyihalari bilan birgalikda oldindan ishlab chiqishni;

har bir ob`ekt bo`yicha loyiha-smeta hujjatlarining davlat ekspertizasidan o`tkazilishi va qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi yuzasidan davlat arxitektura-qurilish nazorati o`rnatilishini ta`minlandi. Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda “Obod qishloq” dasturiga kiritilgan qishloq aholi punktlari bosh rejasi va batafsil rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish bilan bog`liq xarajatlarni mahalliy byudjet mablag`lari hisobidan amalga oshirishni ta`minlasinlar.

9. Qoraqalpog`iston teleradiokompaniyasi, Qoraqalpog`iston axborot agentligi, Qoraqalpog`iston matbuot va axborot agentligi, barcha turdagi ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda “Obod qishloq” dasturi doirasida qishloq aholi punktlarida, ayniqsa, chekka va olis hududlarda amalga oshirilayotgan keng ko`lamli qurilish va obodonlashtirish ishlarini batafsil yoritib borish tavsiya etilgan.

Ijtimoiy rivojlanishning murakkabligi inson hayotining umumiy sharoitlari majmuasi haqidagi boshqa g`oyalarni talab qiladi. Zamonaviylashtirish jarayonlari nafaqat ularning ahamiyatini ko`rsatgan, balki, ayniqsa, muhim bo`lgan - barcha shart-sharoitlarni zaruriy bog`lashni nazarda tutadigan tizim.

Biroq, ko`pincha ijtimoiy infratuzilma elementlari xususiy texnik, ishlab chiqarish, tashkiliy yoki iqtisodiy vazifalar nuqtai nazaridan bir-biridan ajratilgan holda ko`rib chiqiladi. Shuning uchun ijtimoiy infratuzilmaning barcha tarkibiy qismlari yagona, yaxlit boshqaruv va rejalashtirish jarayonining mavzusi bo`lishi kerak. Bu davlat boshqaruvining samaradorligiga, iqtisodiyotning kuch va salohiyatidan oqilona foydalanishga ta`sir qilgan va ta`sir qiladigan elementlarning murakkabligi va o`zaro muvofiqlashtirilmasligi.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo`nalishlari jamiyatni yangilash jarayoni bilan belgilanadi.

III-bob bo'yicha xulosa

Ijtimoiy infratuzilmani qismlarga va yo'nalishlarga ajratish uchun asos ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida tarkibiy qismlarning umumiy funktsional maqsadi, ya'ni jamiyatning muayyan spektrini, aholi va ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan. Eng umumiy shaklda ijtimoiy infratuzilma ijtimoiy va ijtimoiy-madaniy qismlarga bo'linadi.

Ijtimoiy infratuzilma insonni biologik (reproduktiv salomatlik) sharoitida qayta tiklash, uning turmush sharoitida ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Ijtimoiy-madaniy infratuzilma esa insonning ma'naviy, intellektual (madaniy va ma'rifiy muhit orqali) va ko'p jihatdan jismoniy xususiyatlarini takomillashtirishga, uni ishchi kuchining sifati uchun jamiyatning ma'lum talablariga javob beradigan iqtisodiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllantiradi.

Ijtimoiy infratuzilmaning tarkibiy qismi sifatida uy-joy-kommunal xizmatlar, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish, yo'lovchilarni tashish va aholiga xizmat ko'rsatadigan aloqa xizmatlari ko'rsatiladi.

“Obod qishloq” dasturi doirasida markazlashgan manbalar va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ishlar bo'yicha buyurtmachi etib - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining yagona buyurtmachi xizmati “Injirining kompaniya”si belgilandi.

Dasturga kiritilgan barcha ob'ektlar bo'yicha bosh loyihachi va pudratchi tashkilotlarni eng maqbul takliflar tanlovi orqali aniqlashga ruxsat berilsin.

Mazkur tanlovlarni tashkil etish, jarayonlarni nazorat qilish va ularning samaradorligini ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi va tumanlar hokimlari zimmasiga yuklatilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda Iqtisodiyotni barqarorlashtirish - bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Biz iqtisodiyotni barqarorlashtira borib, bozor munosabatlarini normal rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiramiz. Islohotlar barqarorlikning g'oyat muhim sharti bo'lmish - aholini ijtimoiy himoya qilish, xaqiqatdan ham asosiy, uzluksiz, ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida oldindan o'tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lining yetakchi prinsiplaridan biridir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishish bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir. Iqtisodiyot barqaror rivojlangandagina bozor munosabatlariga muvaffaqitli o'tishi mumkin.

Infratuzilma atamasi XX asrning 40-yillari oxirida ilmiy ma'ruza kiritdi va dastlab turli xil qo'shinlarning muvaffaqitli hamkorligini ta'minlovchi yordamchi tuzilmalar majmuini nazarda tutgan edi. Ammo 50-yillarda olimlar bu tushunchaga iqtisodiy hayot jarayonlarini tushuntirish uchun murojaat qilishdi. Amerikalik birinchi iqtisodchi P.Rosenshtein-Rodanning aytishicha, infrastruktura iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun qulay shart-sharoitlar majmuini tashkil etgan.

Ijtimoiy infratuzilmaning holatiga ko'ra ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilish darajasi va sifati, ularning sanoati rivojlangan mamlakatlar darajasi bilan bog'liqligi va zamonaviy taraqqiyot talablari baholanadi. Ijtimoiy dasturlarning amalga oshirilishiga muvofiq umumishlab chiqarish jarayonida ijtimoiy infratuzilmaning ahamiti oshadi va uning lpi ichki mahsulotdagi ulushi ko'padi. Ijtimoiy infratuzilmaning hajmi va ko'lami shundayki, uni ijtimoiy ishlab chiqarishning to'rtinchi bo'linmasi deb qarash mumkin. Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturi zamirida o'n minglab yangi ish o'rinlarini ratishdek, juda ulkan hajmdagi ishlar mujassam

bo'lib, mamlakatimiz aholisining bunday keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida faol ishtiroki ta'minlanmoqda. Qolaversa, mazkur dastur mamlakatimiz uchun dolzarb bo'lgan aholi bandligini ta'minlash, shu tariqa odamlarning daromadini nada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalari hal etilishiga xizmat qilmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida jamiyatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlar jarayonida aholining ijtimoiy himoyayaga muhtoj qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularni ish bilan bandligini taminlash, yolg'iz keksalarni tibbiy-ijtimoiy himoyayalashga qaratilgan doimiy e'tibor jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda.

Mamlakatimizda bu sohadagi ishlarni tashkil etishning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. "Vasiylik va homiylik to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyaya qilish to'g'risida", "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida", "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi va boshqa qonunlar hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va hayotga joriy etilmoqda.

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari kimlar? Avvalo, ana shu savolga javob berishimiz kerak. O'zgalarning parvarishiga muhtoj keksalar va yolg'iz yashovchi keksalar, I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar, etim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ehtiyojmand kishilar hisoblanadi.

Aholining ushbu qismiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning kompleks tizimi yaratilishi ko'zda tutilgan. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari aniq belgilab qo'yilgan ishlarni ustidan nazoratni kuchaytirish.

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlarga muhtoj shaxslarni aniqlash

va hisobga olish hamda ularga ushbu xizmatlar ko'rsatilishini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ijtimoiy xizmat oluvchilarning oila va jamiyat bilan aloqalarini saqlash, ularning qulay muhitda bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va ijtimoiy xizmatlar standartlariga rioya etilishini ta'minlash, sohada ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga kiritilgan, bu dasturlarni keng ko'lamli amalga oshirish uch xalqni ichida yurib ularning murojatlarini eshitshimiz lozim albatta.

Davlat organlari va tashkilotlari jamoatchilik nazorati o'tkazilishiga qarshi chiqmay, balki ko'maklashishi lozim. Jamoatchilik nazorati natijalari ular tomonidan ko'rib chiqilishi shart.

Bularning barchasi ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish, tizim faoliyatining ochiq-oshkoraligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko'rsatish sohasi sub'ektlarining shakllanishi va taraqqiy etishida hamda ularning yuqori samaradorlik bilan ishlashini ta'minlashda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilish, mazkur soha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohalarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish hamda ularning rolini oshirishni ta'minlash bilan bir qatorda, aholi turmush sifatiga sezilarli ijobiy ta'sir etadigan, mamlakatning iqtisodiy va eksport salohiyatini yuksaltirish imkoniyatini beradigan soha va tarmoqlarni tezroq sur'atlar bilan rivojlantirmog'imiz darkor. Bunday soha va tarmoqlarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llabquvvatlash va bevosita yordam berish, jumladan, turli imtiyozlar majmuasini qo'llashning amaliy mexanizmlari yaratilishi maqsadga muvofiqdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014.– 76 b.
2. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2017 yil 13 fevral, 6-son, 70-modda.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 y. PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliya o'rganlarining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 18-martdagi PQ-2847-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarning jadal ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 8-avgust PQ-3182-sonli qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.03.2018 y. PF-5386-son "Obod qishloq dasturi to'g'risida"gi farmoni.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy- me'yoriy hujjatlari .

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir". Toshkent: "O'zbekiston", 2010-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
3. SH.M. Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56 b.

4. SH.M. Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. -104 b.

5. SH.M. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. -48 b.

6. SH.M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. -488 b.

V. Darsliklar

1. R. O'. Ergashev, S. N. Xamrayeva Qishloq Xo'jaligi Infratuzilmasi Iqtisodiyoti O'quv qo'llanma Toshkent 2012

2. M.M.Tashxodjayev, R.X.Karlibayeva, Z.A.Ashurov “Ishlab chiqarish infratuzilmasi” O'quv qo'llanma TDIU: 2014.

3. Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Muxamedjonova G.YA “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti” Uslubiy qo'llanma. T.: TDIU, 2008. -160 b.

4. V. V. Kovarda, E. V. Bezuglaya // Evropa ijtimoiy fan jurnali). - 2013 yil. - № 2 - P. 285-290. 6.

5. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X., Qurboniyozov I.R. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2010. – 268 bet.

6. Ishmuxamedov A.E., Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Sunnatov M.N. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. T.: TDIU, 2007. – 250 bet.

7. “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti” fanidan o'quv-uslubiy majmua. T.: “Iqtisodiyot” 2012. -200 b.

8. Pod.red. T.D.Burmenko. Sfera uslug: ekonomika, menejment, marketing. Uchebnoe posob. M.:KNORUS, 2010 -424 str.

9. Voskolovich.N.A. Ekonomika platных uslug: uche.posob. M.: «Ekonomika», 2007. -366 str.

10. Minakova, I. V. Rossiya barqaror rivojlanishining resurslarini qo'llab-quvvatlash. [M] / IV Minakova, V. V. Kovarda // Intellect. Innovatsiyalar. Investitsiyalar. №1, 2012. - P. 88-97.

11. Kukushina V.S. Sotsialnaya zaщita naseleniya. Uchebnoe posobie. M.: INFRAM, 2007. -321 s.
12. Jukova M.A. Menedjment v turisticheckom biznese. Ucheb.posobie – M.:KNO - RUS, 2005. -192 s.
13. Filippovskiy E.E. SHmarova L.V. Ekonomika i organizatsiya gostinichnogo xozyaystva. – M.: FiS, 2005. -176 s.

Internet saytlari VII. Internet saytlari

7. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasining hukumat portali.
8. <http://press-service.uz/> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
9. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
10. www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi web sayti
11. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.
12. O'zbekiston Respublikasini 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida.<http://mineconomy.uz>